

# O'ZBEKISTONDA — OLIY TA'LIM —

Высшее образование в Узбекистане  
Higher education in Uzbekistan  
ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal

№3 2025-yil

ISSN 2181-3051

[www.edujournal.uz](http://www.edujournal.uz)

 /edujournal.uz

 /edujournal.uz

 /edujournal\_uz

 /edujournaluz



***Bilish qiziqishdan  
boshlanadi.  
Aristotel***



# O‘ZBEKISTONDA — OLIY TA‘LIM —

Tahrir hay‘ati raisi:

**Qo‘ng‘irotboy Sharipov**

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Bosh muharrir:

**Abduvali Xoliqov**

Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi direktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

**Oqil Salimov**

**Shavkat Ayupov**

**Sadritdin Turobjonov**

**Inomjon Majidov**

**Qalandar Abdurahmonov**

**Shuhrat Sirojiddinov**

**Shuhrat Yoqubov**

**Qobil Ro‘ziyev (Angliya)**

**Anush Ayrapetova (Rossiya)**

**Atham Hudoyqulov**

**Rustam O‘rinboyev (Shvetsiya)**

**Mustafa Karatash (Turkiya)**

**Muhammadolim Muhammadsiddiqov**

**Ismoil Saifnazarov**

**Akmaral Magauova (Qozog‘iston)**

**Halim Saidov**

**Sadoqat Maxsumova**

**Nozima Muratova**

**Muzaffar Esanov**

**To‘ychi Ahmedov**

**Vazira Abdujanova**

**Jaxongir Usmanov**

**Gulnoza Najmiddinova**

Dizayner:

**Sunnatulla Musamedov**

Manzil: Toshkent shahri, 2  
Chimboy ko‘chasi, 96 uy

Sayt manzili:  
[www.edujournal.uz](http://www.edujournal.uz)

Elektron pochta:  
[press@devedu.uz](mailto:press@devedu.uz)

Telefon:  
(+998 71) 207-03-43 (125)

Jurnal O‘zbekistondagi oliy ta‘lim  
muassasalariga tarqatiladi.

Muassis:

**O‘zbekiston Respublikasi**

**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,**

**Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi.**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan  
1495-raqamli guvoohnoma bilan

29.12.2021 sanasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

“O‘zbekistonda oliy ta‘lim” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 30-noyabrda № 327/6-sonli qarori bilan iqtisodiyot, yuridik, filologiya, pedagogika va siyosiy fanlar, Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 25-dekabrda 365-son qarori bilan texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA:

### OLIIY TA‘LIM ISTIQBOLLARI

- 2 **Rasul Rahmonov.** Zamonaviy rahbar qanday bo‘lishi kerak?
- 14 **Viktor Alimasov.** Oliy ta‘limda madaniyatshunos va san‘atshunoslar tayyorlashning zamonaviy muammolari

### KUN MAVZUSI

- 24 **Muxtor Nazirov.** “Yashil kun” tartibiga o‘tish – Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot uchun ustuvor masala

### MILLIY TAJRIBA

- 31 **Eldor Xomidov.** Davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining tadbirkorlik subyekti sifatida tashkiliy-huquqiy jihatlarining o‘ziga xos xususiyatlari

### TADQIQOT

- 39 **Mehrinigor Raupova.** Oliy ta‘limda biologiya darslarida PISA topshiriqlari formatidagi amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash va uning samaradorligini baholash
- 46 **Эльнора Багавова.** Сравнительный анализ программ подготовки синхронных переводчиков: тенденции и перспективы
- 55 **Muxlisa Sabirova.** Gender stereotiplik masalasi va uning Internet matnlarida ifodalanishi
- 62 **Yorqinoq Komilova.** Yetakchi ayollar siyosiy portreti: gender stereotiplar va konseptual modeli
- 71 **Тимур Низамутдинов.** Формирование и дальнейшее развитие узбекской драматургии (на примере пьесы Саид Ахмада «Бунт невесток»)
- 77 **Mirzoxid To‘xtaboyev.** Janubiy Koreya tajribasi asosida muhandis kadrlarni tayyorlashda o‘quv-ishlab chiqarish bazasini takomillashtirishning o‘ziga xosligi
- 87 **Gulsanam Norova.** O‘zbek tili tarixi va o‘zbek shevalarini tadqiq etish muammolari



**Rasul RAHMONOV,**

Toshkent shahrida Vebster universiteti ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi ijrochi direktori, iqtisod fanlari nomzodi, professor

# Zamonaviy rahbar qanday bo'lishi kerak?

Toshkent shahridagi Vebster universiteti ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi ijrochi direktori, iqtisod fanlari nomzodi, professor Rasul Rahmonov bilan O'zbekistondagi xorij universitetlari filiallari faoliyati, ulardagi ta'lim jarayonlari va oliy ta'lim atrofidagi yana ko'plab mavzularda suhbatlashdik.

## — Vebster universitetining O'zbekistondagi filialini ochishdan ko'zlangan maqsadlarga erishildimi?

— Avvalambor, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilgan ta'lim islohotlari doirasida xalqaro universitetlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar va inson kapitali uchun ajratilayotgan investitsiyalarni alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Aynan mana shu islohotlar natijasi o'laroq, Prezidentimizning 2019-yil 20-martdagi PQ-4245 sonli qarori asosida Toshkent shahrida Vebster universiteti ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi (Toshkent shahridagi Vebster universiteti) tashkil etilgan bo'lib, unga ko'ra, universitetni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar:

- ta'limda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari ilg'or tajribasini joriy etish;

- tarmoq sohalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash;


- oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi bir qator vazifalar bo'lgan.

O'ylaymanki, universitetni ochishdan ko'zlangan maqsadlarga erishildi. Saba-

bi, Toshkent shahridagi Vebster universiteti 2019-yildan beri 3000 ga yaqin yuqori malakali kadrlarni (857 ta bakalavr va 2063 ta magistr) tarmoq sohasiga yetkazib berdi va hozir ular muvaffaqiyatli faoliyat olib borishyapti.

Bugungi kunga kelib, Toshkent shahridagi Vebster universiteti barcha davlatlardagi Vebster kampuslari orasida eng yirik xalqaro kampusga aylandi – hozirda bu yerda 5 500 dan ortiq talaba tahsil olmoqda va u kampuslar ichida birinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga, universitetimiz mamlakat miqyosida e'tibor qozondi – masalan, 2023 va 2024-yillar davomida ketma-ket "Yil brendi" mukofotini qo'lga kiritdi.

Bu yutuqlar Toshkent shahridagi Vebster universitetining O'zbekistondagi faoliyati davlat va jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotganidan dalolat beradi. Albatta, biz uchun bu hali boshlanishi, oldinda yana katta rejalar turibdi, lekin shu vaqtgacha qo'lga kiritilgan natijalar asosiy maqsadlar sari to'g'ri yo'nalishda ketayotganimizni ko'rsatadi.





### — **Universitet ta'lim berishda qanday xalqaro standartlarga tayanadi?**

— Toshkent shahridagi Vebster universiteti ta'lim jarayoni AQSHning Higher Learning Commission (HLC) tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan bo'lib, bu uni xalqaro standartlarga javob berishini ta'minlaydi.

Universitet Global Citizenship Program – tanqidiy fikrlash, muammo yechish, global bilimlar o'zlashtirishda liberal ta'lim modelaridan foydalanadi, shu bilan birga xalqaro darajadagi TESOL va MHA dasturlarini CAEP (Council for the Accreditation of Educator Pre-

paration) talablariga mos ravishda, ya'ni xalqaro pedagogik va tibbiy ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshirib keladi.

Universitet ta'lim dasturlarini tayyorlashda AQSH va xalqaro o'quv standartlariga tayanadi, baholash tizimi kredit negizida va shaffoflikka asoslangan. Biz uchun eng muhimi – butun dunyoda e'tirof etiladigan ta'lim sifatiga erishish, shu bois doimiy ravishda ichki va tashqi sifat nazoratini amalga oshiramiz.

### — **Bugun O'zbekistonda xalqaro universitet filiallari ko'p. Vebster ulardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?**

— Toshkent shahridagi Vebster universitetining yurtimizdagi boshqa xalqaro universitet filiallaridan ajralib turuvchi o'ziga xos jihatlari mavjud.

Avvalo, universitet – MDHda ilk ochilgan va Markaziy Osiyodagi hozircha yagona AQSHning brend universiteti (filiali) hisoblanadi. Ya'ni VU 1915-yil tashkil etilgan.

Bu shundan dalolat beradiki, o'quv dasturlarimiz va diplomlarimiz to'g'ridan-to'g'ri AQSH standartlari asosida beriladi va dunyoda to'liq tan olinadi. Ikkinchidan, Vebster universiteti haqiqiy ma'noda global tarmoqqa ega universitet sanaladi – uning kampuslari AQSH, Yevropa va Osiyoni o'z ichiga olgan ko'plab davlatlarda faoliyat yuritadi. Toshkent shahridagi Vebster universiteti ana shu yagona tarmoqning bir qismi sifatida ishlaydi, shu sababli talabalarda Study

Abroad dasturi orqali Vebster universitetining boshqa kampuslarida o'qish imkoniyatlari mavjud.

Masalan, hozirgi kunda Toshkent shahridagi Vebster universitetida boshqa kampuslardan kelgan – 34 ta mamlakat vakillari ta'lim olishmoqda. Bunday xilma-xil talaba safi universitet muhitini haqiqiy xalqaro maydonga aylantirib, talabalarga ko'p madaniyatli muhitda o'qish tajribasini beradi.

Xorijlik professor-o'qituvchilar ulushi 40%dan yuqori. Bu esa, o'z navbatida, til tashuvchilarning ta'lim berishi, dunyoqarash kengayishi, global fikrlash imkoniyatini kuchaytiradi. Xorijlik o'qituvchilar ulushining yuqori bo'lishi universitetning xalqaro imijini, ta'lim sifatini, talabalar imkoniyatlarini va akademik hamkorliklarini sezilarli darajada oshiradi.



## — Ilm-fan va tadqiqot sohasida qanday natijalarga erishilmoqda?

— Toshkent shahridagi Webster universitetida ilm-fan va tadqiqot sohasida doimiy ravishda xalqaro konferensiyalar, stajirovkalar, ta'lim ko'rgazmalari, ilmiy loyihalar va xalqaro grantlarda ishtirok etib boriladi.

May oyida sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarga bag'ishlangan davra suhbatini o't-

kazdik. Sentyabrda "Oliy ta'limda sifatni ta'minlash", oktyabrda esa "TESOL" xalqaro konferensiyalarni o'tkazishni reja qilganmiz.

Bundan tashqari universitetda yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun workshoplar, treninglar va xalqaro konferensiyalar tashkil etib kelinmoqda.

## — Professor-o'qituvchilar tanlovi qanday amalga oshiriladi?

— Toshkent shahridagi Webster universitetida professor-o'qituvchilarni tanlab olish jarayoni 3 bosqichli intervyu asosida tashkil etiladi. Intervyu quyidagilarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich — HR intervyu bo'lib, u nomzodning umumiy ma'lumoti, ish tajribasi, motivatsiyasi va jamoaviy ishlash qobiliyatini baholashga qaratilgan. Ikkinchi bosqichda mutaxassislik bo'yicha suhbat o'tkaziladi: o'qituvchilar uchun fan bo'yicha bilimlari, dars o'tish usullari; ilmiy xodimlar uchun tadqiqot va nashrlar; ma'muriy

xodimlar uchun kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati ko'rib chiqiladi. Uchinchi bosqich — rahbariyat bilan suhbat bo'lib, nomzodning universitet maqsad va qadriyatlariga mosligi, strategik fikrlashi va uzoq muddatli rejalarini baholanadi. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tganlarga part-time ishlash taklif qilinadi hamda bu davrda nomzodning amaliyotdagi qobiliyati, jamoa bilan ishlash madaniyati, talabalar bilan munosabati va universitet ichki qoidalariga mosligi kuzatiladi va baholanadi.



### — Talabalar qanday amaliyot dasturlariga ega va ularni ish bilan ta'minlashda qanday yordam beriladi?

— Talabalar ta'lim olish davomida bir qator amaliy tajriba va amaliyot imkoniyatlaridan foydalanishadi. Universitetda Karyerani rivojlantirish va bitiruvchilar bilan aloqalar bo'limi faoliyat yuritib, talabalarga stajirovkalar topish, ishga joylashish jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda ko'maklashadi. Universitetda har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan Career Fair

(karyera yarmarkasi) bunda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 2025-yil 17-aprelda universitetda bo'lib o'tgan navbatdagi Karyera yarmarkasida 120 ga yaqin mahalliy hamda xorijiy kompaniya va tashkilotlar o'zlarining 600 dan ortiq bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashishdi. Ushbu yarmarkada 1 500 nafar talabalar ishtirok etib, 400 ga yaqin shartnomalar imzolandi.

### — Vebster universiteti talabalari uchun xalqaro almashinuv (exchange) imkoniyatlari haqida aytib bersangiz.

— Universitet global tarmoqlararo almashinuv imkoniyatlarini taqdim etuvchi tizimning bir bo'lagi hisoblanadi. Vebster universitetining bir necha qit'alarda kampuslari mavjud bo'lib, Toshkent shahridagi Vebster universiteti talabalari ushbu dastur doirasida erkin ravishda ma'lum semestr almashinuvlarda qatnashishlari mumkin. Ya'ni, talabalar ikki semestrgacha Vebster universitetining

boshqa kampuslarida to'lov shartnomalari o'zgarmagan holda o'qib kelishlari mumkin. Masalan, AQSHdagi bosh kampus – Sent-Luisda yoki Jeneva (Shveysariya), Vena (Avstriya), Leyden (Niderlandiya) kabi Yevropadagi kampuslarimizda tahsil olish imkoniyati bor. Bunda talabaning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (GPA) 2.6 dan yuqori bo'lishi talab etiladi.







## — Vebster universiteti O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimiga qanday yangiliklar olib kirdi deb hisoblaysiz?

— Vebster universiteti O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida bir qator muhim yangiliklarni amalga oshirgan. Birinchidan, u mamlakatda birinchi marta joriy etilgan AQSHning o‘quv-kredit tizimi asosida ta‘lim beruvchi tuzilma sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu tizim talabalariga o‘z ta‘lim yo‘nalishlarini erkin shakllantirish, kurslarni tanlash, o‘qish jarayonida akademik mustaqillikni ta‘minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalarning malakasini baholashda xalqaro mezonlar asosida ishlaydigan GPA tizimi va semestrlik kreditlar joriy etilgani yuqori samara bermoqda.

Ikkinchidan, Vebster universiteti boshqaruv tizimi ham an‘anaviy davlat universitetlaridan farq qiladi. Universitetda qabul qilish, baholash, dars jadvalini shakllantirish va ta‘lim sifati monitoringi kabi jarayonlar elektron boshqaruv va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida avtomatlashtirilgan. Bu esa shaffoflik, tezkorlik va talabalar uchun qulaylik yaratadi.

Uchinchidan, Vebster universiteti akademik mobillik bo‘yicha ham katta imkoniyatlar yaratgan. Talabalar dunyoning turli mamlakatlaridagi Vebster universitetining filiallariga

almashinuv dasturlari asosida o‘qishini davom ettirishlari, xorijda amaliyot o‘tashlari va global ta‘lim muhitida tajriba orttirishlari mumkin. Bu esa ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlaydi.

To‘rtinchidan, o‘qishga qabul jarayonini yilda 2-3 marta amalga oshirish tajribasini amalda sinab ko‘rish rejalashtirilmoqda.

Marketing va rekruting – talabalarni qabul qilish va ularni kasbiy yo‘naltirishda yangicha yondashuv va marketing instrumentlaridan foydalanilmoqda.

Beshinchidan, tantanali bitiruv marosimlarini o‘tkazish. Bu rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqsak, tantanali bitiruv marosimlari bu tahsil jarayonining eng kulminatsion va ajralmas nuqtasi hisoblanadi. Bunda 4 yilda talaba olgan bilim va ko‘nikmalari e‘tirofi, mustaqil hayotga yo‘naltirish motivatsiyasi, otalar tanlovining to‘g‘ri bo‘lganligi ko‘pgina muhim omillar bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois har yili bu tadbirga jiddiy yondashamiz. Ochig‘i, ko‘pgina mahalliy universitetlar bizdan namuna olib, bunday tantanali tadbirlar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yishganini aytishim mumkin.











### — **Vebster universiteti talabalari uchun xalqaro almashinuv (exchange) imkoniyatlari haqida aytib bersangiz.**

— Mutaxassis sifatida mening fikrimcha, O'zbekiston oliy ta'limidagi eng katta muammolardan biri – ta'lim sifati va mazmunini zamon talablari darajasiga chiqarishdir. So'nggi yillarda ko'p islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali ham ba'zi universitetlarda o'quv dasturlari eskirgan metodlar asosida qolib ketgani seziladi. Masalan, talabaga mustaqil va tanqidiy fikrlashni o'rgatish o'rniga, faktlarni yod olishga asoslangan yondashuv ustunlik qiladigan joylar mavjud. Bundan tashqari, oliy ta'limning amaliy hayot va mehnat bozori bilan integratsiyasi yetarlicha emasligi muammo hisoblanadi – bitiruvchilarning barchasi ham bozor talabidagi ko'nikmalarga ega bo'lib chiqmayotganini kuzatish mumkin.

Fikrimcha, ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadga muvofiq. Ko'plab o'quv dasturlari hali ham nazariy asosda qolmoqda va amaliy ko'nikmalarga yetarlicha e'tibor qaratish kerak deb o'ylayman. Shunda bitiruvchilarning real sektorda faoliyat yuritishiga keng imkoniyat ochib beradi va ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida sanoat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bu esa oliy ta'limning iqtisodiyot bilan uzviy bog'lanishida katta ahamiyat kasb etadi.



### — Kelgusi 5 yilda Vebster universiteti qanday maqsadlarga erishmoqchi?

— Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-fevraldagi «Vebster universiteti (AQSH) bilan hamkorlikda yuqori malakali hamshiralarni tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi 95-sonli qaroriga asosan, Tibbiyot OTMLari bilan hamkorlikda yangi ta'lim yo'nalishlarini joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash, universitet uchun 20 gektar yer maydonida 10 000 o'rinli o'quv binolari va 2 000 o'rinli talabalar turar joyini

(haftalik internat) majmuasi qurilishini tugatish rejalashtirilgan.

Kasbiy ta'lim sohasida ham trening va dasturlarni yo'lga qo'yish ustida ishlayapmiz (mehmonxona va turizm, o'rta bo'g'in hamshiralarni tayyorlash kabi). Bu borada Markazimiz dunyoning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik ustida ishlaymoqda. Shuningdek, xalqaro (AQSH) umumta'lim maktabini ham tashkil qilishni reja qilganmiz.

### — O'zbek yoshlariga qanday maslahat berasiz? Ular global raqobatga tayyor bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak?

— Hozirgi davrda o'zbek yoshlari uchun eng muhim maslahatlarimdan biri – har doim o'z oldiga yuqori maqsad qo'yish va unga erishish uchun harakat qilish, doimiy ravishda o'z ustida ishlash va ta'lim olishdan to'xtamaslikdir. (Kuzatish, tahlil qilish, ssenariy taxmin qilish) Ilim olish faqat diplom olish bilan cheklanmaydi; har kuni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib borish odatga aylanishi kerak. Jahon maydonida raqobatchi bo'lish uchun esa, avvalo, chet tillarni mukammal o'rganish lozim. Xususan, ingliz tilini yaxshi bilish bugun dunyodagi deyarli barcha sohalarga yo'l ochadi – shuning uchun har bir yoshga ingliz tilida erkin muloqot qila olish darajasiga erishishni tavsiya qilaman. Shu bilan birga, ikkinchi yoki uchinchi xorijiy tilni ham o'rganish ortiqcha bo'lmaydi, chunki ko'p tilli mutaxassislariga talab juda yuqori. Texnika taraqqiyotini ham inobatga olib, yoshlar, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida savodxon bo'lishlari muhim. Zamona-

viy dunyoda dasturiy ta'minotni tushunish yoki asosiy kodlash ko'nikmalariga ega bo'lish katta afzallikdir. Har qanday sohada ham kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan kadrlar talab etilmoqda. Lekin faqat texnik bilimning o'zi yetmaydi – soft skills deb ataladigan yumshoq ko'nikmalarni ham rivojlantirish kerak. Masalan, jamoada ishlay olish, muloqot madaniyati, muammolarni hal eta olish, vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalar ham karyerangizda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash va kreativ yondashuv ham har doim yuqori baholanadigan fazilatlaridir – shuning uchun yoshlar muammolarga nostandart yechimlar topishga o'rganishga harakat qilishi lozim. Yoshlarga yana bir maslahatim – imkoniyatlarni qidirishdan va foydalanishdan qo'rqmasinlar. Bugungi kunda Internet orqali juda ko'p xalqaro dasturlar, onlayn kurslar, stipendiya va tanlovlar haqida ma'lumot olish mumkin.

### — Agar O'zbekistondagi barcha rektorlar va ta'lim rahbarlariga murojaat qilish imkoni bo'lsa, bu murojaat qanday mazmunda bo'lar edi?

— Barcha rektorlarga murojaat qilish jiddiy narsa, tajribali ustozlar borib ulardan ko'p maslahatlar olaman. Shuning uchun ustozlarga biror tavsiya berishdan istihola qilaman. Lekin, o'z tajribamdan kelib chiqib xalqaro ta'lim dasturini olib kelish va bunda o'quv-uslubiy jarayonini xorijlik mutaxassislardan iborat jamoani shakllantirish kerak deb o'ylayman. (Slobodan Pesich tajribasi) - barcha rektorlarni tizim ichidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga chaqirgan bo'lar edim. Universitetlar o'z tajribasini bo'lishsin, birgalikda qo'shma dasturlar yoki

konferensiyalar o'tkazsin, professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'ysin. Chunki bir universitetning yutug'i – butun mamlakat ta'lim tizimining yutug'idir, shuningdek bir joydagi muammo ham hammamizga tegishli deb bilishimiz kerak. Ikkinchidan, men ta'limda innovatsiya va yangiliklarga ochiq bo'lishga chorlar edim. Zamonaviy dunyoda ta'lim usullari va texnologiyalari juda tez yangilanmoqda. Shuning uchun, har bir rektor o'z muassasasini isloh qilishdan, yangi yondashuvlarni sinab ko'rishdan qo'rqmasligi kerak.

### — Zamonaviy rektor qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

— Bugungi kunning rektori an'anaviy ma'muriy rahbardan ko'ra ko'proq strateg va ilhomlantiruvchi lider bo'lishi talab etiladi. Men zamonaviy rektorning bir necha muhim xususiyatlarini qayd etgan bo'lardim. Birinchidan, strategik fikrlash va vizionerlik – rektor o'z universitetining 5-10 yillik kelajagini tasavvur qila olishi, uni raqobatbardosh qilish uchun aniq rejalariga ega bo'lishi kerak. U har kunlik muammolarni hal etish bilan birga, uzoq muddatli maqsadlarni ham ko'zdan qochirmasligi lozim.

Ikkinchidan, innovatsion dunyoqarash – zamonaviy rektor yangilikka ochiq bo'lishi zarur. Tez o'zgarayotgan texnologiyalar va ta'lim metodlariga moslasha olish, ularni universitet hayotiga tatbiq etish qobiliyati muhimdir.

Rektor yo'q bo'lsa ham ish jarayoni to'xtamay davom etadigan tizim qilish kerak. Qadriyat va missiya ishlab chiqilishi, yangi g'oyani rag'batlantirish – barcha xodim kamida bir yilda bir marta ish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklif berishi majburiy bo'lishi kerak.

### — Ta'lim tijoratmi?

— Ta'lim tijoratmi yoki yo'q – bu juda nozik va ko'p qirrali savol. Bitta jihatdan qarasaq, oliy ta'lim muassasasi iqtisodiy faoliyat yuritadi: universitetni boshqarish, dars xonalarini jihozlash,

texnologik infratuzilmani yangilash, professor-o'qituvchilarga maosh to'lash kabi ishlar uchun moliyaviy resurs talab etiladi. Universitetlar talabalardan kontrakt to'lovlari yoki grantlar or-





qali mablag' oladi va uni o'z faoliyatiga sarflaydi – bu ma'noda ma'lum bir biznes model mavjud deyish mumkin. Masalan, xususiy universitetlar moddiy barqarorlikka erishish uchun marketing qiladi, abituriyentlarni jalb etishga harakat qiladi, ta'lim xizmatini ta'minlashda raqobatlashadi – bularning barchasi biznesga xos taraffar. Shu jihatdan ta'limni tijoratning bir ko'rinishi sifatida ko'rish mumkin. Biroq ta'limning mohiyatiga nazar solsak, uni to'laqonli tijorat deb atash to'g'ri emas. Tijoratda asosiy maqsad – foyda olish, daromadni oshirish bo'lsa, ta'limda esa asosiy maqsad – ma'rifat tarqatish, yangi avlodni kamol toptirish, jamiyat taraqqiyoti uchun malakali kadrlar yetishtirishdan iborat. Ya'ni, ta'lim – strategik va ijtimoiy sohadir, u yerda

yuksak maqsadlar ko'zlanadi. Albatta, ta'lim muassasasi o'zini iqtisodiy jihatdan o'zi ta'minlashi, samarali moliyaviy menejmentga ega bo'lishi kerak – aks holda uning faoliyati barqaror bo'lmaydi. Shu ma'noda, boshqaruvda biznes prinsiplaridan (rejalashtirish, tahlil, optimal qarorlar qabul qilish) foydalanish kerak bo'ladi. Lekin biz ta'limni xizmat ko'rsatish sohasi deb atagan taqdirimizda ham uning "mijoz"lari – talabalar – oddiy iste'molchi emas, balki ertangi kunimizni yaratuvchi shaxslardir. Shuning uchun ta'limdagi "biznes model"ning markazida foyda emas, inson kapitali yotadi. Ta'lim tijoratga aylanib ketgan holatlarda, afsuski, sifati yomonlashishi, maqsadlar o'zgarib ketishi mumkin.

— **Mazmunli suhbat uchun rahmat!**

**«O'zbekistonda oliy ta'lim» jurnali  
ijodiy muharriri Sadoqat MAXSUMOVA  
suhbatlashdi.**





**Viktor ALIMOV,**  
O'zbekiston Davlat san'at va  
madaniyat instituti professori,  
falsafa fanlari doktori

# Oliy ta'limda madaniyatshunos va san'atshunoslar tayyorlashning zamonaviy muammolari

O'zbekistonda madaniyatshunos va san'atshunoslar tayyorlash Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan 1928-yili Samarqandda san'atshunoslik (musiq va xoreografiya) instituti (hozirgi O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi San'atshunoslik instituti shu asosda tashkil qilingan) ochilgach boshlangan.



1932-yili u Toshkentga, 1943-yili esa yangi ochilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimiga o'tkazilgan. Unda madaniyat va san'at muammolarini o'rganuvchi tadqiqotchilar va ijodkorlar yetishib chiqadi. Ular ichida o'zbek madaniyati va san'atiga katta hissa qo'shgan, ilmiy faoliyati bilan fan olamiga tanilgan Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Tolib Sodiqov, Doni Zokirov, Sharif Ramazonov, Anvar Xalimov kabi ijodkorlar bo'lgan.

1943-yili A.N. Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomlik instituti ochiladi. Unda o'zbek teatr va rassomlik san'ati muammolari bilan ilmiy-amaliy shug'ullanuvchi mutaxassislar tayyorlangan.

Badiiy-estetik idrok oddiy hayotiy kuzatuv, voqea va hodisalarni taqqoslash, ulardagi go'zallik va xunuklikni payqash emas, u maxsus bilim va tajriba orqali yon-atrofdan nafosat, badiiy-estetik boylik, garmoniya izlashga qaratilgan psixognoseologik vositadir. Uning imkoniyatlari maxsus bilim va tajribalar doi-

rasidadir. Mikelanjelo odam anatomiyasini, qismlar o'rtasidagi proporsiyani, garmoniyani bilmaganida nigoh va aql-u idrokni lol qoldiruvchi David haykalini yaratolarmidi? Uning odam anatomiyasiga oid hisob-kitoblari, o'lchovlari, ilmiy fikrlari, merosi hatto zamonaviy anatamlarni ham hayratga soladi. Haykaltarosh qahramonining qo'l tomirlari izlari, oyoq barmoqlarining jipsligigacha tiniq ko'rsatolgan. San'atkorning badiiy-estetik bilimi va idroki qahramonning qip yalang'ochligini ham unutib, inson vujudida qancha go'zallik yashiringani haqida o'ylashga majbur qiladi... Demak, badiiy-estetik idrok imkoniyatlari reallikka monand, hatto inson ongini hayratga soluvchi reallikka aynan tasvirni yaratoladi. Rangtasvir bu tasvirni bo'yoqlar orqali yaratadi, she'riyat va badiiyat esa obrazlar, qiyoslar, poetik so'zlar, satrlarga murojaat etadi. Badiiy-estetik idrok imkoniyatlari o'ziga muvofiq keladigan tasvir vositalarni kashf etganida asarni reallikka yaqinlashtiradi. Le-



kin badiiy-estetik idrok imkoniyatlari reallikka taqlid qilish bilan cheklanishga majburdir. 2023-2024-yillari O'zbekiston DSMI magistr, bo'lg'usi madaniyatshunos va san'atshunoslar o'rtasida o'tkazgan nazorat savolimiz o'rganayotgan ilmiy muammoga ma'lum bir oydinlik kiritadi. "Hamkurslaringizdagi badiiy-estetik idrokni qanday baholaysiz?" degan nazorat savolimizga olgan javobimiz quyidagicha bo'lgan: "A'lo" – 4 %, "Yaxshi" – 11%, "Qoniqarli" – 34%, "Qoniqarsiz" – 51%.

Javoblardan ma'lum bo'ladiki, respondent-magistrlarning yarmi hamkurslari badiiy-estetik idrokini "Qoniqarsiz", deb baholashdi. Ikkinchi o'rinni "Qoniqarli" degan javob oldi. Ammo magistrlar ichida badiiy-es-

tetik idroki va bilimi "A'lo" va "Yaxshi" baholan-ganlar ham bor. Demak, umrini madaniyatshunoslik va san'atshunoslikka bag'ishlashga tayyor yoshlar ham topiladi. Sir emaski, magistrlar ichida nima uchun o'qiyotgani, madaniyatshunoslik va san'atshunoslik qanday sifatlarni talab etishini bilmaydiganlar ham yetarlicha. Madaniyat va san'at sirlarini, mahobatini anglash madaniyatshunos va san'atshunos uchun shunchaki qiziqish emas, balki badiiy-estetik idrokni, Gegel iborasi bilan aytganda, "zo'rlash, mutlaq g'oya" pog'onasiga ko'tarish imkonidir.

Madaniyat va san'at tabiiy borliqqa taqlid qilsa-da, ularning ifodasi, tasviri, asarlari tabiatga aynan emas. Ha, madaniyat va





san'at borliqni bo'rttirib, ideallashtirib ko'rsatishga moyil. Fantaziyaga, xayolotga berilish, murakkab obyektlarni simvollarda ifodalash, goho tabiatda yo'q kuy, ohang va jilvalarni yaratish orqali ijodkor kashfiyot qiladi. "Munajat" navosi tayyor holda tabiatda yo'q. Alifbo, texnika vositalari, "siti"lar ham tayyor holda tabiatda uchramaydi. Inson aql-u idroki, mehnati, intellektual izlanishlari bilan ikkinchi tabiat – ijtimoiy borliq, madaniy va estetik boyliklar yaratadi. Bunda u badiiy bo'rttirish va ideallashtirish metodidan foydalanadi. Respondent-magistrlarimiz 68%ining fikriga ko'ra, aynan badiiy bo'rttirish bilan bog'liq fantaziya madaniyat va san'atni zavqli, maftunkor sohaga aylantiradi. Aholining deyarli 90-95%

badiiy ijodning u yoki bu turini sevadi, ba'zan esa ular bilan, havaskorlik shaklida bo'lsa-da, shug'ullanadi. Demak, borliqni badiiy bo'rttirib, fantaziyasi bilan boyitib ifodalash, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida, insonga xos jihatdir. Bu jihatini u o'zining ijod bilan shug'ullanish huquqi deb biladi. Badiiy bo'rttirish va ideallashtirish, agar insonni destruktiv yoki deviant xatti-harakatlarga undamasa, zararli emas, biroq ularning g'ayrihayotiy da'vatlari ham borligini unutmaslik kerak. Bo'lg'usi madaniyatshunos va san'atshunoslar ushbu ziddiyatni aniq bilishadi, ularning deyarli barchasida badiiy-estetik ijodga pozitiv munosabat shakllangan.

Madaniyat va san'at qanchalik pozitiv vo-



qeliklar bo'lmasin, ularda kishi ongida "daholik va telbalik" (Ch. Lombrozo) uyg'otuvchi sirli, eng zakiy idrokni ham hayratga soluvchi nimalardir bor.

Ular nima? Ijod jarayonimi? Obyekt bilan uyg'unlashish istagimi? Borliq ibtidosiga, sir-asroriga yetish bilan bog'liq o'jarlikmi? Darkning, tafakkurning o'zini namoyon qilishga bo'lgan jur'atimi? Nima u?.. Aristoteldan tortib to B.Rasselgacha hech kim aniq javob

berolmagan. Shuning uchun madaniyatshunoslar va san'atshunoslar ijodkorning borliqqa badiiy-estetik munosabatlarini o'rganish bilan cheklanishni ma'qul ko'radilar. Inson idrokining barcha shakllarini tahlil qilgan, "XX asrning buyuk faylasufi" nomini olgan, Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan B.Rassel "inson bilimlarining hammasi nisbiy, cheklangan va xatolidir" degan xulosaga keladi (8, C. 586). Nisbiy, cheklangan va xatoli fikr haqiqat da-





rakchisi bo'la oladimi? Albatta, yo'q. Demak, madaniyat va san'atning did va ongga destruktiv ta'sir etuvchi jihatlari ham mavjud. Masalan, Nisshening madaniyat, axloq, din va sivilizatsiyani rad etgan nigilizmi, sintaksis, kesim, sifat, punktuatsiya, lirikadan kechishga undagan futuristlar, real borliqdan o'zmoqchi bo'lgan syurrealistlar va supernaturalistlar, "radikal kommunizm" tarafdorlari atalgan dadaistlar... destruktivistlar emas-

mi? Ular butun madaniyat va san'atni, ta'lim va axloqni tubdan o'zgartirishga intilib, badiiy-estetik ongga revolyutsion ta'sir etishga intildilar. Agar kimda kim ushbu yondashuv tarixda qoldi, ular eslashga ham arzimaydi, deb hisoblasa, adashadi. Ularning ta'sirini badiiy-estetik ijod bilan shug'ullanuvchi barchada ko'rishimiz mumkin. Bugun rangtasvir janrida ijod qilayotgan musavvir o'zini syurrealist S.Dali izdoshi hisoblaydi. Biz ushbu



“izm”larni taqiqlay olmaymiz, ijodkorlar “erkin ijod” shiorini darrov ro‘kach qiladi. Respondent-magistrlarimizning 71% “ijodiy erkinlik”, 14% “axloqiy normalar”, 9 % “konstitutsion huquq” doirasida ijod qilish mumkinligini bildiradilar. Respondentlarimizning 6% javob bermagan, chamasi, ular madaniyatshunos va san’atshunos bo‘lishni aniq tasavvur etishmaydi. Boshqa respondentlarda yoshlikka xos bo‘lgan maksimalizm, o‘zini tez namoyon etish, tezroq yutuqlarga erishish istagi bo‘rtib turadi. Ijodiy erkinlik tarafdorlari esa ilmiy izlanishdan ko‘ra ko‘proq amaliyotga moyildirlar. Bu o‘rinda nazariyot bilan amaliyot, tadqiqotchi bo‘lish bilan san’atkor bo‘lish o‘rtasida psixofunksional farqlar borligi ko‘zga tashlanadi. Madaniyat va san’at xodimlarida tezroq elga tanilish istagi ustuvor, madaniyatshunos va san’atshunos esa tor doiradagi mutaxassislarga, uzoq yillik izlanishlardan keyin tanilishi mumkin.

Madaniyat va san’at – demokratik voqeliklardir. Ularga ochiqlik va ommaboplik xos. Badiiy-estetik ijodning u yoki bu turi bilan qiziqmaydigan, shug‘ullanmaydigan kishi topilmaydi. Lekin bu barcha ham professional ijodkor, madaniyatshunos yoki san’atshunos olim bo‘ladi, degani emas. Nazariyotchi bilan amaliyotchi boshqa-boshqa faoliyat turlari egalaridir. Nazariyotchi amaliyotchi faoliyatini, asarlari va artefaktlarini baholaydi, ularga ilmiy, falsafiy-estetik baho beradi. Gnoseologik qiziqish uning qurolidir. Nazariyotchi madaniyat va san’at taraqqiyotini g‘oyalar, konsepsiyalar va strategemalar tarzida modellashtiradi, bashorat qiladi. U mavjud

tajribalarni umumlashtiradi, ularni xorijiy tajribalar bilan qiyoslaydi, madaniyat va san’atni yanada gumanitarlashtirish yo‘llarini aniqlab beradi. Intellektual izlanishga qurilgan ilmiy ishlanmalari orqali nazariyotchi inson va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Bu hissa kamdan kam holda obyektiv baholanadi, elga taniladi. Darvoqe, tadqiqotchi elga tanilish uchun emas, balki soha duch kelayotgan muammolarni aniqlab, ularga samarali yechimlar topish uchun izlanadi. Mavjud muammolarni ratsional baholab, madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish jamiyat, davlat va amaliy sohaning vazifasidir. Ba‘zan bu tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilmay ham qolishi mumkin. Tadqiqotchining bosh vazifasi nazariy ishlanmalar, modellar va tavsiyalar yaratish, ularni hayotga tatbiq etish esa amaliyotchilar ixtiyoridadir. Tadqiqotchilarga xos ushbu funksiyalar va vazifalar bugun magistrilarimizda shakllantirilayapdimi?

Magistrlar tayyorlash muammolarini tahlil qilgan t.f.d., professor R.I.Xalmuradovning e‘tiroficha, “Magistraturaga qabul tizimi, ta’lim mazmuni, o‘quv rejasi va tashkiliy falsafasi kutilgan magistr sifatini bergani yo‘q. Bunday sharoitda, ikki bosqichli oliy ta’lim saqlanib qolarkan, magistraturaning maqsadi va mazmuni o‘zgacha bo‘lishi to‘g‘ri bo‘lar edi deb o‘ylaymiz” [1, 47 b.]. “O‘zgacha”ga muallif “go‘yoki biz ilmiy xodim tayyorlayotgandek bo‘lyapmiz”dan umumiy yo‘nalishdagi bilimga, chuqur kasbiy bilimga ega magistrilar tayyorlashga o‘tish, “Magistrlar to‘g‘risida”gi Nizomni qayta ko‘rib chiqish,



magistrlarni muayyan kafedraga emas, ta'lim yo'nalishiga muvofiq qabul qilish, ular sonini bakalavrlarning 40-50% ga yetkazish kabilarini kiritadi [2, 48 b.].

Haqiqatan ham, magistratura oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bo'lsa-da, unga bir tomondan kasbiy ta'limning davomi va tadqiqotchilar tayyorlovchi bo'lim sifatida qarash mavjud. Masalan, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutida magistrlar kafedralarga birlashtirilgan bo'lib, ular kasbiy ta'limning ikkinchi bosqichidagi tinglovchilardir. O'zbekiston DSMIda esa magistratura bo'limi mavjud, tinglovchilar kafedralarga emas, mustaqil bo'limga birlashtirilgan. Biroq ikkala institutda ham magistrarga bir tomondan, amaliyotchi, san'atkor, ikkinchi tomondan, tadqiqotchi deb qarash shakllangan. Bizning fikrimizcha, ularga o'tiladigan fanlarni 80/20 qilgan ma'qul. Hozir ularga asosan tadqiqotchilar uchun zarur "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" (ma'ruzalar – 30 soat, amaliy mashg'ulotlar – 30 soat, mustaqil ta'lim – 60 soat) fani o'tiladi. Birinchi semestrda mo'ljallangan ushbu fan bir yil o'qitilsa, ma'qul bo'lardi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, magistrilar ilmiy ishlanmalar yaratadigan laboratoriya va ijodiy ustaxonalarga, tayyor asarlarini tijoratlashtirish imkoniga ega bo'lishi kerak. Biroq madaniyat va san'at asarlarining barchasini ham tijoratlash imkoni yo'qligini yodda tutish zarur. Bu madaniyat va san'at sohasining iqtisodiy emas, balki ma'naviy-tarbiyaviy funksiyasi bilan bog'liqdir. Uchinchidan, magistrilarni tor yo'nalishda emas, balki institut umumiy ta'limi yo'nalishida tayyorlash zarur,

degan fikrda jon bor. Agar magistr tadqiqotchi bo'lishni istayotgan bo'lsa, u madaniyat va san'atning umumiy qonuniyatlarini bilishi darkor. U tanlagan tor yo'nalishini madaniyat va san'at taraqqiyotining umumiy yo'nalishlari bilan bog'lay olsin.

To'rtinchidan, magistr kim, u nazariyotchimi yo amaliyotchi? Bizning kuzatishimizcha, ularni ajratish kerak. O'quv darslari nisbatini 80/20, ya'ni nazariyotchilar uchun tadqiqotlar o'tkazish metodlari darslari 80%, qolganlari 20%, amaliyotchilar uchun maxsus fanlar 80%, qolganlari 20% bo'lgani ma'qul.

Beshinchidan, magistrilar ta'limini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish kerak. Ularga o'tiladigan darslar bakalavriatnikidan keskin farqlanishi darkor. Bakalavriatdagi fanlar va mavzularni takrorlash mashg'ulotlarni zerikarli qiladi, innovatsion izlanishga undamaydi. Madaniyat va san'atga mudom yangilik, betakrorlik izlash xos, aynan ushbu jihat mashg'ulotlardagi takrorlashni yoqtirmaydi. Bo'lg'usi madaniyatshunos va san'atshunos obyektidan, avvalo, yangilik, betakrorlik qidiradi, uni ushbu sifatlari orqali baholaydi.

Prezidentimiz 2023-yil 22-noyabr kuni madaniyat va san'atni rivojlantirishga oid taqdimotlar bilan tanishib, Mahmudxo'ja Behbudiy va Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofotlarni ta'sis etish, teatrshunos va san'atshunoslarning mahorat maktablari hamda teatr tanqidchilari va dramaturglari klubi tuzish, nodavlat teatrlariga ham davlat grantlari berish tartibini qo'llash lozimligini ta'kidladi [2]. Mazkur chora-tadbirlar ham madaniyatshunos va san'atshunoslar tayyorlashga, ilmiy

izlanishlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi.

Innovatsiya madaniyat va san'atning substansiyasi, mohiyatidir. Zamonaviy bo'lishga intilmaslik madaniyat va san'atni konservativ hodisaga aylantiradi. Hatto XIV asrda barpo etilgan Samarqanddagi Registon ham etnomadaniy turizm obyektiga aylantirilgani tufayli zamonaviydir. Demak, magistr nazariyotchi bo'lganida ham, amaliyotchi bo'lganida ham zamonasiga hamnafas, davr muammolariga ilmiy yoki amaliy yechimlar topishga tayyor ijodkor bo'lib qoladi.

Madaniyatshunos va san'atshunos ratsional fikrlovchi, obyektini real holatidan ideal holatga yetkazish metodlaridan xabardor, optimistik prognostikaga tayanuvchi ilm xodimidir (3, 12-13-b.). Madaniyat va san'atga xos intuitivlikni ratsional bilish obyektiga aylantirish barcha tadqiqotchilarga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun ham madaniyat va san'atni o'rganuvchilar yo publitsistikaga yoki empirizmga berilishadi. Masalan, Toshkent davlat instituti ochilganiga ellik yildan oshdi, lekin madaniyat nazariyasi, menejmenti, ommaviy tadbirlar tashkil etish metodikasi bo'yicha birorta nazariy-metodologik tadqiqot o'tkazilmagan. Hatto bu yo'nalish-

lar o'quv dasturlarida yetakchi o'rinda turadi. To'g'ri, o'quv va uslubiy qo'llanmalar chop etilgan, ammo ular empirik tajribalar talqinlaridagina iborat. Madaniyat sohasini ilm-fan sifatida shakllantirishga qaratilgan, nazariy-metodologik, falsafiy tadqiqotlar yo'q. Keyingi yillarda institutda (PhD) bo'yicha ilmiy kengash ochildi, Angliya, Belgiya, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari bilan tajriba almashishlar yo'lga qo'yildi. Institut xalqaro aloqalarini yo'lga qo'yuvchi, madaniyatshunos va san'atshunoslar tayyorlashga mas'ul magistratura bo'limi ochildi, o'ndan ziyod (PhD) dissertatsiyalar himoya qilindi. Empirizmdan ssiyentizmga, bayonchilik va publitsistikadan nazariy metodologiya, falsafiy konsepsiyalar yaratishga qadam tashlandi. Bo'lg'usi madaniyatshunos va san'atshunoslarga mo'ljallangan "Madaniyat falsafasi", "Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi" kabi yangi predmetlar joriy etildi. Ular bo'yicha o'quv qo'llanma (2023-yil) va darslik (2025-yil) chop etildi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistratura bo'limini madaniyat va san'at sohasi bo'yicha "aql laboratoriyasi" (M.Boltaboyev iborasi)ga aylantirish ehtiyoji mavjud. Buning uchun M.Boltaboyev





OTM va malaka oshirish institutlarini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishni, professor-o'qituvchilarning professional rivojlanishi uchun xorijiy universitetlarda malaka oshirish manzillarini ishlab chiqishni taklif etadi (4, 5-b.). Bu borada madaniyatshunos va san'atshunoslarning imkoniyatlari behad keng. Ular ilmiy va badiiy-estetik ishlanmalarini Internet, televideniye, kino, teatr, musiqa, radio, Ommaviy axborot vositalari, festivallar, madaniy-ommaviy tomoshalar, zamonaviy rekreatsiya markazlari, reklambrendlar, turizm orqali tarqatishi, hatto tijoratlashtirishi mumkin. Faqat badiiy-estetik va kreativ izlanish zarur. AQSH va Buyuk Britaniya universitetlaridagi maftunkorlik talaba va magistrlik ilmiy qiziqishini pragmatizm, akademik erkinlik va madaniy-rekreatsion tadbirlar bilan uyg'unlashtirishdadir. Shvetsari-

ya, Niderlandiya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Tailand, Janubiy Koreyada o'quv jarayonlari sayohatlarga olib borish, etnomadaniy an'analar bilan tanishtirish, davlat tiliga o'rgatish, maroqli dam olishini uyushtirish dasturlariga kiritilgan. (5; 6;7). Bizda ham ichki turizmdan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Madaniyatshunos va san'atshunoslar tayyorlashni davr talablariga muvofiq yo'lga qo'yish uchun:

- magistraturaga qabul qilish tartibini qayta ko'rib chiqish, faqat ilmiy izlanishga layoqatli yoshlarni qabul qilish kerak;

- badiiy-ijodiy eksperimentlar o'tkazish bazasini shakllantirish darkor;

- magistrlik dissertatsiyalarini OAK reyestriga kiritish, ularning umumiy (respublika, mintaqa, xorijiy) axborot bazasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. "Ta'lim muammolari" // J. 2017, 9 son. 46-49 b.
2. "Yangi O'zbekiston", Gazeta. 2024, 23-noyabr.
3. Alimasov V. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va ta'lim poligrafiya, 2025.
4. Boltaboyev M. Oliy ta'lim muassasalari qachon "aql laboratoriyalari"ga aylanadi?//J. "O'zbekistonda oliy ta'lim", 2023, 3 son.
5. Альтбах Ф. Глобальные перспективы высшего образования. – Москва: ЛитРес, 2021.
6. Огурцов А., Платонов В.В. Образы образования. Западная философия образования. XX век. - СПб.: РХГИ, 2004.
7. Розов Н. Философия гуманитарного образования. – Москва: Альма матер, 1993.
8. Рассел Б. Человеческое познание. – Москва: Ин. лит-ра, 1958.
9. <https://ru.wikipedia.org>



**Muxtor NAZIROV,**  
siyosiy fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

# “Yashil kun” tartibiga o‘tish — Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot uchun ustuvor masala

2025-yil dunyo uchun misli ko‘rilmagan darajada xavfli va ziddiyatli kechmoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra, ikkinchi jahon urushi tugaganidan beri global miqyosda bunchalik ko‘p qurolli mojarolar kuzatilmagan. Mana shunday shart-sharoitda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi ish boshladi.



Sessiya ko'p tomonlama hamkorlik va xalqaro huquq tamoyillari sinovga tortilayotgan bir davrga to'g'ri keldi. Ko'p tomonlama hamkorlik va umumiy mas'uliyatni yanada kuchaytirishga bo'lgan ehtiyoj hech qachon bunchalik katta bo'lmagan. Global xavfsizlik inqirozi va iqlim o'zgarishi bir-biri bilan bog'liq ikki yirik tahdid sifatida insoniyatdan birdamlik, adolat va amaliy qadamlarni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 78-sessiyada BMT minbaridan so'zlagan nutqida jahon hamjamiyati diqqatini iqlim o'zgarishi oqibatlari va Markaziy Osiyoda bu boradagi hamkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan edi. Bu masala hozir ham o'z yechimini kutayotgan eng og'ir global muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Prezident Mirziyoyev ta'kidlaganidek, sayyoramizda ekologik vaziyat keskinlashib bormoqda: iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi va atrof-muhitning ifloslanishi butun dunyoda chuqur inqirozga aylandi. Iqlim o'zgarishi – davrimizning asosiy muammosi va uning yechimi insoniyat tarixidagi burilish nuqtasi bo'lishi mumkin. Hali ham salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun vaqt bor, ammo bu global miqyosda misli ko'rilmagan birdamlik va sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Yashil rivojlanish masalasida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida konstruktiv hamkorlikni chuqurlashtirish zarur. Mintaqa suv resurslari taqchilligi, cho'llanish va ekologik ofatlar oqibatida jiddiy sinovlarga duch kelmoqda. Prezidentning nutqi shuni ko'rsatdiki, bu masalalarni yechishda har bir davlatning hissasi muhim, ayniqsa, mintaqaviy darajadagi

hamkorlik umumjahon barqarorligiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lishi mumkin.

Sir emaski, dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmogda, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib bormoqda. Dunyoda yashil kun tartibiga o'tish borasida hozirda sust muvofiqlashtirilgan va geosiyosiy manfaatlar ta'siridagi sa'y-harakatlar davom etmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari nomutanosib ravishda muammo uchun eng kam javobgar bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ayni jarayonda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish borasida o'z yondashuvlari mavjud. Davlatimiz rahbari global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolatli, shaffof va inkluziv bo'lishi, bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari, albatta, inobatga olinishi zarurligini ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, 1992-yilda qabul qilingan Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMT doiraviy konvensiyasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash yo'lidagi birinchi qadamni belgilab berdi. Konvensiyaning asosiy maqsadi "iqlim tizimiga xavfli antropogen ta'sir"ning oldini olish bo'lib, hozirda 197 davlat uning ishtirokchilari hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiya ishtirokchilarining 21-global konferensiyasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror past uglerodli rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarni faollashtirish bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Parij kelishuvi Konvensiya mandatiga asoslanadi va tarixda birinchi marta barcha xalqlarni iqlim

o'zgarishiga qarshi kurashish va uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish uchun birlashtiradi. Parij kelishuvining asosiy maqsadi – bu asrimizda global haroratning o'sishini 2°C darajasida ushlab turish uchun iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha global harakatni kuchaytirish va hatto bu ko'rsatkichni 1,5°S gacha kamaytirishga harakat qilishdir.

Parij kelishuvi BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida 2016-yil 22-aprelida, Xalqaro ona Yer kunida 175 davlat rahbarlari tomonidan imzolangan. Bu bir kun ichida xalqaro shartnoma imzolagan davlatlar soni bo'yicha rekord ko'rsatkichdir [3].

BMTning Glazgo shahrida o'tkazilgan 2021-yilgi iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (2021-yil 31-oktyabr – 12-noyabr) hissasiga global chiqindilarning uchdan bir qismi to'g'ri keladigan “Katta Yettilik” (G7) va Yevropa Ittifoqi davlatlari birgalikda global isishni 1,5°C chegarasidan past darajada ushlab turish majburiyatini oldi. Yigirmatalik guruhining (G20) qolgan mamlakatlari, shu jumladan, BRIKS mamlakatlari (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) hissasi global issiqxona gazlari chiqindilarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Afsuski, bu davlatlar haligacha Parij kelishuviga muvofiq iqlim isishini 1,5°C - 2,0°C gacha cheklash majburiyatini olmagan. Biroq, 2022-yilda Misrda va 2023-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tgan iqlim konferensiyalarida yanada ulkan iqlim maqsadlarini belgilashga qaratilgan muhokamalar davom etdi.

2024-yilning 12-noyabr kuni Ozarbayjonning Boku shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha 29-global konferensiyasi (COP29) doirasidagi sammitda so'zlagan nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqlim o'zgarishlari bugungi kunda geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Soha mutaxassislarining fikricha, kam uglerodli, barqaror rivojlanishga o'tish an'anaviy rivojlanish yo'llari bilan solishtirganda, 2030-yilga kelib 26 trillion AQSH dollari miqdorida to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

O'zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda. 2030-yilgacha havoga issiqxona gazi chiqarishni uchdan bir qismga kamaytirish, “yashil” energetika ulushini 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda. Prezidentimiz COP29 sammitidagi nutqida ta'kidlaganidek, bu ayniqsa, aholi turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro'yobga chiqarishda yangi to'siqqa aylanmoqda.

O'zbekistonning bu boradagi xavotiri Orol fojiasi oqibatini bartaraf etish yo'lida ko'rilyotgan choralar, Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi salbiy ta'siri va suv bilan ta'minlanlik darajasi kamayishi bilan bog'liq ma'lumotlarda namoyon bo'ladi.

Markaziy Osiyo shunday hududki, mintaqadagi ekologiya muammolari umumiy va ayni



payt ayrimlari umumbashariy darajada dolzarb. Mintaqadagi hech bir davlat bu muammolarni mustaqil hal qila olmasligi sa'y-harakatlarni samarali birlashtirish zaruratini oshiradi.

Yaqin yillarda Orolbo'yi ekotizimi tanazuli yanada kuchayishining oldini olish va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli tashqi siyosiy faollik ko'rsatilmoqda. Natijada, BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-mayda "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi rezolyutsiyasi qabul qilinishi ulkan hodisa bo'ldi. Shu hujjat asosida yurtimizda tegishli milliy chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda.

So'nggi bir necha yil davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o'rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming gektar yashil hududlar barpo etish reja-

lashtirilmoqda. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Orolbo'yi mintaqasida qo'riqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 4,6 million gektarni tashkil qiladi [2].

Suv Markaziy Osiyodagi beshta davlatda cheklangan resursga aylanmoqda. Masalan, mintaqamizning yuqori oqimdagi gidroenergetika va quyi oqimdagi qishloq xo'jaligi ehtiyoji tufayli cheklangan resurslarni adolatli taqsimlash juda dolzarb. Transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Binobarin, O'zbekiston rahbariyatining suv bilan bog'liq mintaqaviy muammolarni hal qilishga konstruktiv yonda-





shuvi bois, bu boradagi munosabatlar oxirgi payt ijobiy tomonga keskin burildi.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi. Global iqlim o'zgarishlari oqibatida muzliklar erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar kabi yangi xavf va tahdidlar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog'liq vaziyat yomonlashib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasida ta'kidlaganidek, "keyingi 30-yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu – dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq

xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda" [1].

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zida yoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda.

2023-yil 19-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" nomli rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qilishi bu boradagi sa'y-harakatlarni xalqaro darajadagi e'tirofi, deb atash mumkin.

O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha katta miqyos-





dagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning to'rtidan bir qismini tashkil etadigan 1 million gektardan ortiq maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida suvni tejash bo'yicha milliy dasturni ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonning ekologik yo'naltirilgan rivojlanish siyosati mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ham belgilashga ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yil 4-aprelda bo'lib o'tgan Samarqand xalqaro iqlim forumida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi global iqlim inqirozi va Markaziy Osiyo miqyosidagi ekologik tahdidlarni yana bir bor kun tartibiga olib chiqdi. Markaziy Osiyo uchun iqlim inqirozining oqibatlarini – cho'llanish, muzliklarning erishi va suv tanqisligi muammolarini hal etishda birgalikda harakat qilishni taqozo qiladi.

Mintaqada aholi soni 25-yil ichida 100 milliondan oshishi kutilayotgan bir vaqtda, umumiy yer maydonining 20% dan ziyodi degradatsiyaga uchragan, chorak asrdan keyin hosildorlik uchdan bir qismga kamayishi mumkin. Bu holat oziq-ovqat va energiya xavfsizligini ham tahdid ostiga qo'yadi [6].

Prezident Sh.Mirziyoyev o'z nutqida O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini ko'paytirish va parnik gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. U barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun mintaqaviy hamda xalqaro loyihalarni amalga oshirishni taklif etdi.

Toshkentda Yevropa Ittifoqining "Suv – Energiya – Iqlim o'zgarishi" tashabbusi kotibiyatini tashkil etish taklifi;

- Markaziy Osiyoning "yashil taraqqiyot konsepsiyasi"ni qabul qilish va amalga oshirish;

- Toshkentdagi "Yashil universitet" bazasida Iqlim rezidensiyasini mintaqaviy ilmiy-ekspertlik platformasi sifatida faoliyat yuritish;

- Nukusda Orol madaniyat sammitini o'tkazib, ekologik masalalarga jamoatchilik va san'at orqali e'tiborni kuchaytirish.

Qayd etish joizki, so'nggi yillarda Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishiga qarshi global yetakchi sifatida Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish va "toza" energiya manbalarini kengaytirish borasida Markaziy Osiyoda ham hamkorlik aloqalarini faol rivojlantirmoqda.

Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida yangi sharoitlarga moslashish choralari ko'rish zarur bo'ladi. Yaqin kelajakda aholi demografiyasi mintaqaning cheklangan suv resurslariga bosim o'tkazishi muqarrar. Shu bois, mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda Markaziy Osiyoda suv resurslari, energetika, ekologiya va iqtisodiyot sohalarida kompleks yondashuvga asoslangan samarali hamkorlik platformasi mudom zarur bo'lib qolaveradi.

O'zbekistonning suvni tejaydigan texnologiyalar bo'yicha amaliy qadamlari mintaq-



dagi boshqa davlatlar uchun namuna bo'lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi va xalqaro hamkorlarni jalb etish orqali mintaqaviy hamkorlikning chuqurlashishi esa global iqlim inqirozi sharoi-

tida Markaziy Osiyo uchun barqaror kelajakni ta'minlashning muhim garovi sifatida ko'rilmoqda.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6677>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg'ar-masi ta'rischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. 15.09.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6662>
3. Borba s izmeneniyem klimata. <https://www.un.org/ru/aboutun/booklet/climate.shtml>.
4. Water in Central Asia: An increasingly scarce resource. [https://www.europarl.europa.eu/think-tank/en/document/EPRS\\_BRI%282018%29625181](https://www.europarl.europa.eu/think-tank/en/document/EPRS_BRI%282018%29625181)
5. Water Resources in Central Asia: Challenges and Prospects. March 18, 2023. <https://www.undp.org/kyrgyzstan/speeches/water-resources-central-asia-challenges-and-prospects>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand xalqaro iqlim forumida-gi nutqi. 04.04.2025. <https://president.uz/uz/lists/view/8025>





**Eldor XOMIDOV,**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

# Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik subyekti sifatida tashkiliy- huquqiy jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, har qanday mamlakatning rivojlanishi, ertangi kuni va istiqboli davlat tomonidan uning ta'lim tizimiga, ta'lim muassasalarining faoliyatini to'g'ri tashkil etishga hamda ta'lim muassasalarida yetishib chiqayotgan kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir. Shuningdek, har bir rivojlanish, yangilanish, yaratilgan innovatsiyalar zahirida bilim, inson tafakkuri, ilm yotadi.

2020-yildan boshlab ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining ayrim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talab yuqoriligi va moliyaviy barqarorligini inobatga olib, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazishga rozilik berilganligi davlat oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarning ilmiy yechimini izlab topishga bo'lgan zaruratni yanada kuchaytirmoqda va bu milliy sivilistika fani oldida turgan dolzarb, muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasidan OTTni yuridik shaxs ekanligini anglashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinlarda FK)ning 40-moddasi birinchi qismida yuridik shaxslar tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga ajratilgan. Tijoratchi tashkilot foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olsa, tijoratchi bo'lmagan tashkilot esa foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmaydi.

Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 62-moddasi uchinchi qismiga binoan, ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishi, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishiga haqli[1] ekanligi belgilangan.

Bir tomondan, oliy ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda OTT)ining yuridik shaxs sifatida tashkiliy-huquqiy shakli uni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat bermasa, ikkinchi tomondan unga pulli ta'lim xizmatlari-

ni ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat berilishi ba'zi kolliziyalarni keltirib chiqaradi.

Xorijiy tajribaga e'tibor beradigan bo'lsak, eng murakkab vaziyatlarda iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yuqori samaradorlik bilan hal qilish uchun OTTlarini yangi tashkiliy-huquqiy shakllarini o'rnatish amaliyotini ko'rishimiz mumkin.

Bu borada, Rossiya Federatsiyasi davlat oliy ta'lim muassasalarini avtonom notijorat ta'lim tashkilotlari shakliga o'zgartirish uchun RF Fuqarolik kodeksining 123.24-moddasida huquqiy asosi yaratilgan. Masalan, avtonom notijorat tashkiloti aynan fan-ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa madaniy xizmatlarni ko'rsatish maqsadida tashkil qilinadi. Ammo, avtonom notijorat OTT yagona muassis tomonidan ham, bir nechta ta'sischi tomonidan ham tashkil qilinishi mumkin.

Boshqa muassasalar singari avtonom notijorat tashkiloti ham ta'sischi tomonidan mulkiy badallari hisobidan tashkil qilinadi va u a'zolikka asoslanmasligi ham mumkin. Avtonom notijorat yuridik shaxslar unitar notijorat shaxs sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Eng muhim jihati, mazkur tashkilot ta'sischi unga bergan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini o'zida saqlab qolmaydi.

Avtonom notijorat tashkilotlarning majburiyatlari va javobgarlik masalasida ta'sischi ham, tashkilot ham bir birini oldida majburiyatlari bo'yicha javobgar sanalmaydi. Ya'ni ta'sischi avtonom notijorat tashkilotning xizmatlaridan boshqa shaxslar bilan bir xil darajada foydalanadi.





Avtonom notijorat OTTlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yoki tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilishda ustav kapitalida ishtirok eta oladi. Masalan, Rossiya davlat gumanitar universiteti, G.B.Mirzoyev nomidagi Rossiya advokatlik va notariat universiteti, Rossiya xalqaro olimpiya universiteti va o'nlab shu kabi universitetlar tadbirkorlik maqsadida avtonom notijorat ta'lim tashkilotiga aylantirilgan.

Yana bir nazariyaga ko'ra, OTTlarini aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda AJ) shaklida qayta tashkil etish, ya'ni mavjud davlatga qarashli OTTlarni AJ tashkiliy-huquqiy shakliga o'zgartirish yuqori iqtisodiy samaradorlikning garovi sanaladi.

Bugungi kunda AJ shaklida OTT tashkil etishga ko'pgina xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham ta'qiq yo'q, al-

batta. Bu holat O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasidan anglashiladi.

Masalan, dunyoga mashhur Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti, Rossiya Federatsiyasining Uzoq Sharq federal universiteti ham 2009-yil FZN<sup>o</sup>217-son qonuni bilan aksiyadorlik jamiyatiga aylantirishning huquqiy asosini yaratgan. Bugunki kunda qo'shni Qozog'iston Respublikasida ham 15 dan ortiq ta'lim muassasalari AJ shaklida faoliyat olib boradi. Ulardan birinchisi Qozog' gumanitar-yuridik univesiteti (QozGYU) sanaladi. Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2001-yil 24-oktabrdagi "Qozog' davlat yuridik akademiyasini ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi Qozog' gumanitar-yuridik universitetiga o'zgartirish to'g'risida"gi N<sup>o</sup>1358 Qarori bilan QozGYU tashkil etilgan[2].

Qozog'iston Respublikasining 2001-yil 16-yanvardagi "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasiga ko'ra, notijorat aksiyadorlik jamiyatlari deb, o'z faoliyatini amalga oshirish maqsadida aksiyalar chiqaradigan va foydadan faqat jamiyatning rivoji uchun foydalanadigan yuridik shaxs tan olinadi.

Notijorat aksiyadorlik jamiyati aksiyalardan boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishga haqli emas.

Notijorat aksiyadorlik jamiyatining ta'sis shartnomasi har bir muassis yoki uning vakolatli vakili tomonidan imzolanish yo'li bilan tuziladi.

Notijorat tashkilot sifatida ta'sis etilgan jamiyat tijoratchi tashkilotga o'zgartirilishi yoki tijoratchi tashkilot notijorat tashkilotiga o'zgartirilishi mumkin emas[3].

2016-yildan boshlab Qozog'iston OTTlarida kuzatuv kengashlari faoliyat yuritadi va rektorlarni saylash amaliyoti joriy etib kelinmoqda. Mutaxassislar Qozog'istonda davlat va milliy OTTlarni 2021-yildan boshlab yangi tashkiliy-huquqiy shakli – notijorat aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzish fikrini bildirishmoqda[4]. OTTlarning mazkur yangi tashkiliy-huquqiy shaklga o'tishi kuzatuv kengashlari, endaument-fondlarni tashkil etish, yillik omaviy hisobot va ular faoliyatini auditdan o'tkazishni nazarda tutadi.

Ayrim davlatlar (masalan, Germaniya)ni hisobga olmaganda, deyarli barcha rivojlangan davlatlarda xususiy OTTlarni tashkil etish va bunda qonun yo'l qo'yadigan yuridik shaxslarning istalgan tashkiliy-huquqiy shaklida ularning faoliyatini yo'lga qo'yish mumkinligi belgilangan.

O'zbekistonda OTTlarni AJ shakliga o'zgartirishning ikki variantini taklif etish mumkin:

Birinchi variant, amaldagi qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib OTTlarni tijoratchi tashkilot bo'lgan AJga aylantirish.

O'zbekiston qonunchiligida OTTni AJ shaklida qayta tashkil etish FKning 49-moddasida[5] belgilangan "o'zgartirish" usulida amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni bunda qayta tashkil etilayotgan OTTning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish muassislar (ishtirokchilar) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi birinchi qismiga ko'ra, ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb e'tirof etiladi[6].

Ushbu Qonunning 9-moddasi birinchi qismiga muvofiq, AJ o'zgartirish shaklida ham tashkil etilishi mumkin[7].

Bu holatni istalgan davlat OTT misolida amalga oshirilganida, dastlab uning muassisi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining bu haqdagi tegishli qarori qabul qilinishi lozim bo'ladi. OTT tashkiliy-huquqiy shaklini muassasadan AJga o'zgartirishning dastlabki bosqichida asosiy aksiyador davlat hisoblanishi mumkin, ya'ni aksiyalarning "nazorat paketi" davlat mulkida bo'lishiga yo'l qo'yiladi.





AJ tashkil etishda muassislar (ishtirokchilar)ning ta'sis yig'ilishida tegishli qaror qabul qilinishi (12-modda) va jamiyat ustavi (13-modda) tasdiqlanishi yo'li bilan jamiyat yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi (14-modda).

Ikkinchi variant Qozog'iston tajribasidan foydalanib, nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunga tegishli o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish yo'li bilan notijorat aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish va shu asosda OTTlarni AJga o'zgartirish mumkin.

Muassasa shaklida faoliyat olib borayotgan OTTlarning AJ shakliga o'zgartirilishi bir qator afzalliklarni vujudga keltirishi mumkin:

1) AJ biznesga kapitalni jalb etishning eng samarali va ishonchli usullaridan sanaladi. Odatda, AJni tashkil etish biznesning muayyan turiga yirik kapitallarni jalb etish maqsadida tuziladi va qimmatli qog'oz shaklidagi aksiyalarni chiqarish va sotish yo'li bilan bu maqsad muayyan ma'noda ta'minlanadi.

2) Mablag'larni OTTni moddiy-texnik va axborot resurs bazasini rivojlantirish, pedagog kadrlar va xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish, ilm-fanning ustuvor sohalarida tadqiqotlar olib borishni moliyalashtirishda maqsadli-manzilli dasturlarni erkin tanlash imkoniyati yaratiladi;

3) OTTni boshqaruvda umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi va ijroiya organi tizimi joriy etiladi va samarali xo'jalik boshqaruvi, zamonaviy marketing hamda shartnomaviy ta'lim hamda ilmiy xizmatlar turlarini mustaqil belgilash va amalga oshirish uchun huquqiy asos vujudga keladi;

4) Kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashning yangi metodlarini qo'llash, turli vazirlik va idoralarning ortiqcha byurokratik tartib-taomillariga bo'ysunilishidan erkinlik maydoni hosil bo'ladi;

5) Hozirda ilmiy yo'nalishda pul ishlash OTTlar oldidagi eng dolzarb va amalga oshirilishi juda sekinlik bilan davom etayotgan ja-

rayon yangicha tizimga o'tishiga olib keladi. Xususan, ilmiy yo'nalishda ishlab topilayotgan mablag'larning katta qismi turli fondlar, ajratma, bu mablag'larga umumiy hissasi bo'lmagan amaldorlarga taqsimlanishi kabi mavjud tizimni o'zgartirish imkoniyati vujudga keladi;

6) Boshqaruv tizimini isloh qilish yo'li bilan OTTlarni tekshiruvchi turli idoralar va tashkilotlarning o'rinsiz aralashuvlari va ortiqcha byurokratik talablari cheklanadi hamda OTTning ichki ishlariga aralashish kabi salbiy illatning oldi olinadi.

OTTni AJ shakliga o'tkazish quyidagi xavflarni yuzaga keltirishi mumkin:

1) AJ ishtirokchilari, ya'ni aksiyadorlari bilan boshqaruvchilar hamda pedagog-xodim o'rtasida ichki korporativ ziddiyatlar va nizolar vujudga kelishi. Bunda aksiyadorlarning o'z aksiyalari uchun dividend olishga bo'lgan

manfaati, boshqaruvchilarning mablag'larni OTTni rivojlantirishga qaratishi, pedagog-xodimlarning ish haqi oshirilishi bo'yicha manfaatlari to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin;

2) AJ shaklidagi OTT tijoratchi tashkilotlar to'laydigan soliq stavkalari hamda boshqa majburiy to'lov va yig'imlarni to'lashi lozim bo'ladi;

3) AJ umumiy yig'ilishi va OTTning kengashi vakolatlari va ular o'rtasidagi ichki ziddiyatlar vujudga kelish xavfi mavjud.

OTTning AJ shakliga o'tishi tegishli sohadagi ta'lim va fanning rivojlanishi, sifatli va layoqatli kadrlarni tayyorlash, amaliyotga zarur bo'lgan tadqiqotlar bilan birga, sohaning strategiyasini belgilab beradigan fundamental tadqiqotlarga sharoit yaratadigan mablag'larni ishlab topish va yo'naltirishning eng maqbul variantlaridan biridir. Shu bois davlat muassasasiga nisbatan qonunchilikda belgilangan





turli taqiqlar, ortiqcha va o'rinsiz nazorat, davlat tashkilotlari uchun belgilangan moliyaviy mablag'larni taqsimlash bo'yicha talablarga rioya etish kabi maqsadsiz va manzilsiz cheklovlardan xalos bo'lish OTT faoliyatini bugungi zamonaviy ta'lim va mehnat bozorining raqobatchi ishtirokchisiga aylantirishi, ilmiy mahsulotni yaratuvchisi va sotuvchisiga aylanishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi 763-I-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga "Notijorat aksiyadorlik jamiyatlari" yangi 131-moddani kiritish va uni quyidagi mazmunda belgilash lozim:

"notijorat aksiyadorlik jamiyatlari deb o'z faoliyatini amalga oshirish maqsadida aksiyalar chiqaradigan va foydadan faqat jamiyatning rivoji uchun foydalanadigan yuridik shaxstan olinadi.

Notijorat aksiyadorlik jamiyati aksiyalardan boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishga haqli emas.

Notijorat aksiyadorlik jamiyatining ta'sis shartnomasi har bir muassis yoki uning vakolatli vakili tomonidan imzolanish yo'li bilan tuziladi.

Notijorat tashkiloti sifatida ta'sis etilgan jamiyat tijoratchi tashkilotga o'zgartirilishi yoki tijoratchi tashkilot notijorat tashkilotiga o'zgartirilishi mumkin emas".

Muassasalarning asl mohiyatini o'zida saqlab qolish va ularning mohiyatini kengaytirish maqsadida huquqshunos olimlar ko'p-lab o'z g'oyalarini ilgari surishgan. Xususan, M.V.Tokmovseva davlat oliy ta'lim muassasalarini nafaqat muassasa shaklida, balki davlatning unitar ta'lim tashkiloti sifatida tashkil etish taklifini ham ilgari suradi[8]. Bundan bir necha yil ilgari, ya'ni 2004-yilda Rossiya Federatsiya-



sining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida “ta’lim muassasasi” tushunchasini “ta’lim tashkiloti” tushunchasiga almashtirish va shu orqali ta’lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy shakllarini tanlash ta’lim faoliyatida keng imkoniyatlar vujudga kelishi mumkinligi[9] haqidagi takliflar ilgari surilgan. Lekin mazkur g’oya olimlar tomonidan har ikkalasi ham ayniy tushuncha sifatida e’tirof etilib, o’zgarishsiz qoldirilgan.

Shu bois, davlat oliy ta’lim muassasalarining faqat davlat tomonidan tashkiliy-huquqiy jihatdan muassasa shaklida barpo etilishidan ko’ra, ancha samarali bo’lgan aksiyadorlik jamiyati shaklida ham tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, OTTni bu shaklda tashkil qilish kelajakda universitetlarni rivojlantirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

### Foydalanilgan manbalar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736?ONDATE=01.01.2025%2000>
2. O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan Fransiya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar vazirligi o’rtasida ahdlashuv deklaratsiyasi “O’zbekistonda fransuz tili ta’limi va o’qitilishi to’g’risida”. 2023-yil 14-noyabrda 4532-FR-2023-H. <https://www.lex.uz/ru/docs/-6671332>
3. O’zbekiston Milliy Axborot agentligi, Kamola Yusupova “Fransuz tili o’qituvchilari xalqaro ta’lim tajribalarini o’rganmoqda”. [https://uza.uz/oz/posts/fransuz-tili-oqituvchilari-xalqaro-talim-tajribalarini-organmoqda\\_535749?utm\\_source](https://uza.uz/oz/posts/fransuz-tili-oqituvchilari-xalqaro-talim-tajribalarini-organmoqda_535749?utm_source)
4. Vazirlik yangiliklari “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fransuz tili o’qitiladi” 2025-yil 15-oktyabr. <https://uzedu.uz/uz/news/1801>
5. Vazirlik yangiliklari “Ayni damda 60 nafar fransuz tili o’qituvchilari Fransiyaning Nitsa shahrida amaliyot o’tashmoqda” 2024-yil 24-iyun. <https://uzedu.uz/uz/news/1650>
6. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Fransiya elchisi bilan O’zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish masalalari muhokama qilindi” 2024-yil 11-mart. <https://edu.uz/uz/news/view/6551#gsc.tab=0>
7. Prezident.uz “O’zbekiston Prezidentining Fransiya davlat tashrifi yakunlandi” 2025-yil 13-mart. <https://president.uz/oz/lists/view/7944>
8. Gazeta.uz “Toshkentdagi forumda O’zbek-fransuz universitetining ochilishi muhokama qilindi” 2025-yil 20-may. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/20/uzbek-french-university/>
1. O’zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risidagi qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
8. Токмовцева М.В. Высшее учебное заведение как субъект отношений в сфере предпринимательства: автореф. Дис. канд. юрид. наук. М., 2002. – С. 9-17.
9. Каплюк М.А. Понятие и виды высших учебных заведений: проблемы их правового определения. Известия вузов. северо-кавказский регион. Общественные науки. Спецвыпуск. Ростовский государственный университет путей сообщения. 2006 г. – С. 29-32





**Mehrinigor RAUPOVA,**  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

# Oliy ta'limda biologiya darslarida PISA topshiriqlari formatidagi amaliy mashg'ulotlarni qo'llash va uning samaradorligini baholash

Jahon ta'lim tizimining globallasuvi sharoitida oliy biologik ta'lim mazmunini xalqaro standartlar, xususan, PISA baholash dasturi tamoyillari asosida modernizatsiya qilish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'limda biologiya fanini o'qitish jarayoniga PISA formatidagi amaliy mashg'ulotlarni integratsiya qilishning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, kompetensiyaviy topshiriqlar talabalarning fundamental nazariy bilimlarini real hayotiy kontekstda qo'llash, nostandart muammolarni hal etish, tanqidiy va kreativ fikrlash kabi meta-kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada PISA tipidagi amaliy mashg'ulotlarning talabalarning o'zlashtirish darajasi va amaliy ko'nikmalariga ta'siri empirik tahlil qilinib, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etishning samarali metodikasi va baholash mezonlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi tizimli, qiyosiy-tahliliy va kompetensiyaviy yondashuvlar majmuasidan iborat. Tadqiqot jarayonida oliy biologik ta'limda PISA formatidagi amaliy topshiriqlarni qo'llashning samaradorligini obyektiv baholash maqsadida pedagogik tajriba-sinov metodi markaziy o'rinni egalladi. Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sifatiga ta'sirini o'rgangan olimlar D. Reynolds va S. Farrell ta'kidlaganidek, "PISA, TIMSS kabi testlar shunchaki reyting vositasi emas, balki milliy ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomon-

larini aniqlash, o'qitish metodologiyasini isloh qilish uchun empirik asos bo'lib xizmat qiladi" [6]. Aynan shu g'oyadan kelib chiqib, tadqiqot tajriba (PISA formatidagi topshiriqlar bilan ishlagan) va nazorat (an'anaviy metodika asosida shug'ullangan) guruhlarini shakllantirish va ularning natijalarini qiyoslash orqali amalga oshirildi.

### ***Tajriba-sinov jarayoni ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oldi:***

Dastlabki diagnostik baholash (Pre-test): Har ikki guruh talabalarining biologik savodxonligi, analitik fikrlash va mavjud bilimlarini amalda qo'llay olish darajasini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlar va ochiq turdagi savollardan foydalanildi. Bu bosqich guruhlarining boshlang'ich holatini tenglashtirish va eksperiment natijalarining validligini ta'minlash uchun xizmat qildi.

Yakuniy baholash (Post-test): Tajriba yakunida har ikki guruhga PISA-2022 topshiriqlari [1] va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan [4, 8] kompetensiyaviy masalalar taqdim etildi. Natijalarni baholashda talabalarning nafaqat to'g'ri javob topgani, balki yechimni





asoslay olishi, argument keltirishi va muqobil variantlarni tahlil qilish qobiliyati kabi mezonlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu yondashuv D.U. Islamovning "xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning shunchaki faktologik bilimlarini emas, balki ularning mantiqiy fikrlash zanjirini baholashga imkon beradi" [5] degan fikri bilan hamohangdir.

Olingan miqdoriy (test ballari, o'zlashtirish foizi) va sifat (talabalar javoblarining tahlili, kuzatuvlar) ko'rsatkichlari matematik statistika usullari (xususan, Studentning t-mezoni) yordamida qayta ishlandi va guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatliligi tekshirildi. Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati [3] va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bo'yicha mahalliy olimlar [8] tomonidan ilgari surilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarga to'liq mos keladi.

### **Tajriba natijalari va ularning muhokamasi**

Tadqiqotning empirik bosqichi belgilangan metodologiya asosida biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari orasida pedagogik eksperiment shaklida o'tkazildi. Eksperimentda ishtirok etgan talabalar teng representativlik tamoyili asosida tajriba (n=30) va nazorat (n=30) guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida o'quv jarayoni an'anaviy didaktik yondashuvlar (reproduktiv ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, yopiq formatdagi testlar) doirasida tashkil etilgan bo'lsa, tajriba guruhida o'quv dasturining amaliy komponenti PISA xalqaro baholash dasturi andozalari asosida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy topshiriqlar bilan boyitildi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi talabalar-

ning kognitiv faoliyatini deklarativ bilimlarni o'zlashtirishdan protsessual ko'nikmalar, ya'ni fundamental bilimlarni nostandart va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iborat bo'ldi.

Tajriba guruhida qo'llanilgan topshiriqlar majmuasi talabalardan quyidagi intellektual operatsiyalarni talab qildi:


1. Tadqiqotda qo'llanilgan kompetensiyaviy topshiriqlarning asosi talabalarda ilmiy-kontekstual tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga qaratildi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, talabalar biologik hodisalarni shunchaki nazariy fakt sifatida emas, balki real ekologik, tibbiy yoki ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liq matnlar, grafiklar va jadvallar asosida interpretatsiya qilishga o'rgatildi. Buning yorqin namunasi sifatida "Antibiotiklarga rezistentlik" keys-stadisi ishlab chiqildi. Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi – talabalarda ilmiy matnni chuqur tahlil qilish, grafik ma'lumotlarni professional darajada interpretatsiya qilish, biologik jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini ilmiy asoslash hamda global ahamiyatga ega muammoga tizimli yechimlar taklif eta olish kompetensiyalarini kompleks shakllantirishdan iborat. Mazkur keysni bajarish jarayonida talabalar farmakologik ma'lumotlar (antibiotiklarning ta'sir mexanizmi, yangi preparatlarning sintezi) va fundamental mikrobiologik qonuniyatlarni (mutatsiya, tabiiy tanlanish, gorizontal gen ko'chishi) o'zaro integratsiya qilish orqali global sog'liqni saqlash uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan rezistentlik muammosining ildiz sabablarini va rivojlanish mexanizmlarini tahlil qildilar. Bu jarayon ularga

o'zlashtirgan nazariy bilimlarining amaliy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi. Talabaga taqdim etiladigan material:

Kontekst: 1928-yilda Aleksandr Fleming tomonidan penitsillinning kashf etilishi tibbiyotda inqilob yasadi. Antibiotiklar millionlab insonlar hayotini saqlab qoldi va ilgari o'limga olib keladigan bakterial infeksiyalarni davolash imkonini berdi. Biroq, antibiotiklardan keng miqyosda va ba'zan noto'g'ri foydalanish yangi global muammoni – antibiotiklarga

chidamli (rezistent) bakteriyalarning paydo bo'lishini keltirib chiqardi. Rezistentlik – bu bakteriyalarning muayyan antibiotik ta'siriga bardosh berish va omon qolish qobiliyatidir. Bu tabiiy tanlanish jarayonining natijasidir: antibiotik ta'sirida sezgir bakteriyalar nobud bo'ladi, ammo tasodifiy mutatsiyalar tufayli chidamli bo'lganlari omon qolib, ko'payadi va yangi, davolash qiyin bo'lgan infeksiya manbasiga aylanadi.

Tahlil uchun ma'lumotlar:



### 1-rasm. Yangi antibiotik sinflarining kashf etilishi va rezistentlikning paydo bo'lishi dinamikasi.

(Grafikda gorizontal o'q – yillarni (1940–2020) ko'rsatadi. Chap vertikal o'q – kashf etilgan yangi antibiotik sinflari sonini, o'ng vertikal o'q esa – keng tarqalgan rezistent shtammlar sonini ifodalaydi. Grafikda ikkita chiziq bo'ladi: a) Yangi antibiotiklar chizig'i 1940–1960 yillarda keskin ko'tarilib, 1980-yillardan boshlab deyarli nolga tushadi; b) Rezistentlik chizig'i esa 1950-yillardan boshlab sekin-asta, 2000-yillardan keyin esa keskin ko'tarilishni namoyon etadi.)

Topshiriqlar:

1.1. Ma'lumotlarni interpretatsiya qilish (10 ball): 1-rasmdagi grafikni tahlil qiling. 1980-yildan keyingi davrda yangi antibiotiklarni yaratish sur'ati va rezistentlikning tarqalishi o'rtasidagi nomutanosiblikni izohlang. Bu tendensiya ke-lajakda global sog'liqni saqlash uchun qanday oqibatlar-ga olib kelishi mumkin?

1.2. Sabab-oqibat tahlili (15 ball): Nima uchun shifokor nazoratisiz o'zboshimchalik



bilan antibiotik qabul qilish yoki tavsiya etilgan davolash kursini oxiriga yetkazmaslik antibiotiklarga chidamlilik muammosini yanada chuqurlashtiradi? Javobingizni bakteriyalar populyatsiyasidagi seleksiya (tabiiy tanlanish) mexanizmlari orqali batafsil tushuntirib bering.

1.3. Muammo yechimi (15 ball): Antibiotiklarga rezistentlikning tarqalishini sekinlashtirish uchun uchta darajada (shaxsiy, tibbiy muassasa va davlat darajasida) amalga oshirilishi kerak bo'lgan eng muhim uchta amaliy taklifni ishlab chiqing va har birini qisqacha asoslab bering.

2. Tajriba guruhida qo'llanilgan yana bir muhim pedagogik yondashuv talabalarda gipotetik-deduktiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratildi. Bu uslubning zamirida talabalarni mavjud empirik ma'lumotlar va fundamental nazariy modellarga tayanib, kelajakdagi o'zgarishlar bo'yicha ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqishga va ularni mantiqiy argumentlar bilan himoya qilishga o'rgatish yotadi. Ushbu intellektual ko'nikmani amalda shakllantirish uchun "Evolyutsion poyga" nomli analitik topshiriqdan foydalanildi. Mazkur topshiriqning asosiy maqsadi – talabalarda jadvalli ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ekologik va evolyutsion qonuniyatlarni (xususan, tabiiy tanlanish va populyatsiya

dinamikasi) amaliy vaziyatga mohirona tatbiq etish hamda eng asosiysi, gipotetik-deduktiv fikrlash orqali ilmiy prognozlar tuza olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Topshiriq davomida talabalar populyatsion genetika va tabiiy tanlanish nazariyasining fundamental qoidalariga asoslanib, antropogen omillar (inson faoliyati) ta'sirida ekotizimdagi o'zgarishlarning ehtimoliy oqibatlarini bashorat qildilar. Bu esa ularga nazariy bilimlarni shunchaki yodlashdan voz kechib, ulardan murakkab tizimlarni model-lashtirish va prognozlash uchun vosita sifatida foydalanish imkonini berdi. Talabaga taqdim etiladigan material:

Kontekst: Sharqiy Afrika savannalarida gepardlar (*Acinonyx jubatus*) va Tomson g'azallari (*Eudorcas thomsonii*) o'rtasidagi yirtqich-o'lja munosabati ko'p yillardan beri evolyutsion dinamikaning klassik namunasi bo'lib kelgan. Bu jarayon ko'pincha "evolyutsion poyga" deb ataladi, bunda yirtqichning ov qilishga moslashuvi o'ljaning himoyalaniishga moslashuvini, bu esa, o'z navbatida, yirtqichda yanada takomillashgan moslanishlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotchilar guruhi 40 yil davomida gepardlar va g'azallar-ni maksimal yugurish tezligidagi o'zgarishlar-ni kuzatdilar. Tahlil uchun ma'lumotlar:

**1-jadval**

**Gepard va Tomson antelopasi populyatsiyalarida maksimal yugurish tezligining o'rtacha ko'rsatkichlari (km/soat)**

| Yil  | Gepard (o'rtacha maksimal tezlik) | Tomson antelopasi (o'rtacha maksimal tezlik) |
|------|-----------------------------------|----------------------------------------------|
| 1980 | 98 km/soat                        | 80 km/soat                                   |
| 2000 | 104 km/soat                       | 86 km/soat                                   |
| 2020 | 108 km/soat                       | 90 km/soat                                   |

Topshiriqlar:

2.1. Qiyosiy tahlil (10 ball): 1-jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, gepard va g'azal populyatsiyalarida yugurish tezligining o'zgarish dinamikasini qiyosiy tahlil qiling. Nima uchun bu hodisani "evolyutsion poyga" deb atash mumkin? Javobingizni tabiiy tanlanishning harakatlantiruvchi kuchi nuqtayi nazaridan asoslang.

2.2. Gipotetik prognozlash (15 ball): Tasavvur qiling, 2025-yilda ushbu hududda yirik qishloq xo'jaligi loyihasi boshlanishi natijasida gepardlarning yashash areali keskin qisqardi va ularning soni 70% ga kamaydi. Tabiiy tanlanish nazariyasiga asoslanib, kelgusi 50 yil ichida Tomson antelopasi populyatsiyasining o'rtacha maksimal yugurish tezligida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini prognoz qiling. Prognozingizni batafsil tushuntiring (tezlik ortadimi, kamayadimi yoki o'zgarishsiz qoladimi va nima uchun?).

2.3. Ekologik tahlil (10 ball): Yugurish tezligining doimiy ortib borishi gepard va g'azal turlari uchun qanday fiziologik va energetik "xarajatlar" (kamchiliklar)ga olib kelishi mumkin? Tezlikning cheksiz osha olmasligining kamida ikkita biologik sababini keltiring.

Eksperiment yakunida o'tkazilgan yakuniy attestatsiya (post-test) natijalari guruhlar o'rtasidagi samaradorlik farqini statistik jihatdan ochib berdi. Olingan miqdoriy ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berishda tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi o'rtacha ko'rsatkichlar farqining statistik ishonchliligi Studentning t-mezoni yordamida aniqlandi. Hisoblashlar quyidagi formula asosida amalga oshirildi:

$$t = \frac{\bar{X}_1 - \bar{X}_2}{\sqrt{\frac{S_1^2}{n_1} + \frac{S_2^2}{n_2}}}$$

bu yerda:

t – Student t-mezonining empirik qiymati;  
 $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  – mos ravishda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha arifmetik qiymatlar;  
 $S_1^2$  va  $S_2^2$  – guruhlardagi dispersiyalar;

$n_1$  va  $n_2$  – guruhlardagi talabalar soni.

Olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki (2-jadval), an'anaviy faktologik bilimlarni o'zlashtirish darajasida guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatli tafovut qayd etilmadi ( $p > 0.05$   $p > 0.05$ ). Bu holat har ikki metodikaning ham fundamental nazariy materialni yetkazib berishda deyarli bir xil samaradorlikka ega ekanligidan dalolat beradi.

Biroq, yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni baholovchi mezonlar – bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va analitik argumentatsiya – bo'yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan statistik ishonchli ustunlikni namoyon etdi ( $p < 0.01$   $p < 0.01$ ). Xususan, kontekstli masalalarni yechishda tajriba guruhi 45.3%, analitik fikrlashda esa 54.6% yuqoriroq natija ko'rsatdi. Ushbu empirik dalillar PISA formatidagi amaliy mashg'ulotlar an'anaviy metodikaga qaraganda talabalarning metakognitiv kompetensiyalarini, ya'ni bilimlarni shuncha ki o'zlashtirishdan ularni ongli ravishda tahlil qilish, sintezlash va amaliy muammolarni hal etish uchun transfer qilish qobiliyatini rivojlantirishda sezilarli darajada ustun ekanligini isbotlaydi.



## 2-jadval

## Tajriba va nazorat guruhlaridagi yakuniy baholash natijalarining qiyosiy tahlili

| Kognitiv kompetensiya mezonlari                | Nazorat guruhi (O'rtacha ko'rsatkich, %) | Tajriba guruhi (O'rtacha ko'rsatkich, %) | Statistik farq ishonchliligi (p-value) |
|------------------------------------------------|------------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------|
| Deklarativ bilimlar (Faktologik test)          | 85.2                                     | 87.4                                     | >0.05>0.05                             |
| Protsessual ko'nikmalar (Kontekstli topshiriq) | 54.1                                     | 78.6                                     | <0.01<0.01                             |
| Analitik argumentatsiya (Ochiq savolga javob)  | 48.7                                     | 75.3                                     | <0.01<0.01                             |
| Integral natija                                | 62.7                                     | 80.4                                     | <0.01<0.01                             |

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ishonchli tarzda isbotlaydiki, biologiya ta'limida an'anaviy, asosan nazariy bilimlarni yodlatishga asoslangan metodikadan voz kechib, talabalarining amaliy va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan PISA xalqaro andozalariga mos kompetensiyaviy yondashuvga o'tish o'ta samaralidir. Tajriba guruhi natijalari shuni ko'rsatdiki, real hayotiy muammolar bilan bog'langan, grafik va jadvallarni tahlil qilishni talab etuvchi, prognozlashga undovchi keys-stadilar va analitik

topshiriqlar talabalarning nafaqat fundamental bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni – ilmiy-kontekstual tahlil, gipotetik-deduktiv fikrlash va muammoga yechim topa olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash uchun oliy ta'lim dasturlarini talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishiga xizmat qiladigan interfaol va muammoli ta'lim texnologiyalari bilan boyitish strategik ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy bosqichga olib chiqish bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-6108-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 06/20/6108/1476-son.
2. Sharipov S., Musurmanov N., G'ulomova I. va boshq. PISA-2022 mezonlari asosida biologiya fanidan yozma imtihonlar uchun kompetensiyaviy masalalar to'plami. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 128 b.
3. Biologiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuv: Ilmiy-uslubiy tavsiyalar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 84 b.
4. Reynolds D., Farrell S. Worlds Apart? A Review of International Surveys of Educational Achievement Involving England. – London: HMSO, 1996. – 212 p.
5. PISA 2022 Results. Volume I: The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 360 p.
6. Islamova D. PISA xalqaro tadqiqotining o'quvchilar kompetensiyalarini baholashdagi ahamiyati // O'zbekiston Fanlar akademiyasi axborotnomasi. – 2021. – №7. – B. 112–116.



**Эльнара БАГАВОВА,**

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

# Сравнительный анализ программ подготовки синхронных переводчиков: тенденции и перспективы

В эпоху глобализации и стремительных технологических изменений профессия синхронного переводчика приобретает всё большую значимость. Мир становится всё более взаимосвязанным, и языковой барьер перестаёт быть просто лингвистической проблемой – он превращается в фактор, способный повлиять на эффективность международного сотрудничества, ведение переговоров и принятие решений.



В этих условиях роль профессионального переводчика, особенно синхронного, возрастает, ведь именно он обеспечивает мгновенное понимание и взаимопонимание между представителями разных языковых и культурных сред.

Однако возникает закономерный вопрос: насколько современные образовательные программы способны подготовить специалиста, готового к вызовам этой динамичной профессии? Можно ли считать традиционные модели обучения достаточными в условиях, когда технологии, форматы общения и требования к компетенциям постоянно меняются?

Образовательные учреждения по всему миру предлагают разнообразные подходы к подготовке синхронных переводчиков, и между ними наблюдаются как точки пересечения, так и значительные различия. Сравнение этих программ позволяет не только выявить их сильные и слабые стороны, но и понять, в каком направлении развивается эта область образования. В данной статье мы попытаемся не просто сравнить учебные планы, но и поразмышлять о причинах расхождений, о тенденциях, определяющих облик современного переводческого образования, и о возможных перспективах его развития.

Чтобы говорить о различиях, необходимо сперва понять, что является «ядром» подготовки. Согласие здесь, в целом, существует: профессиональный синхронный переводчик должен обладать не только языковой компетенцией, но и когнитивной вы-

носливостью, умением работать в условиях дефицита времени, стрессоустойчивостью и навыками использования современного оборудования.

Но на практике приоритеты в учебных программах расставляются по-разному. Одни вузы делают акцент на интенсивной практической подготовке в кабинках с симуляторами, другие — на теоретическом осмыслении процесса перевода и лингвистической базе. Почему так? Отчасти это связано с культурными и образовательными традициями, отчасти — с запросами рынка труда в конкретной стране, а также с финансовыми и технологическими возможностями университетов.

Взяв для сравнения программы Женевского университета, Middlebury Institute и ведущих российских вузов (например, МГЛУ и СПбГУ), мы сразу замечаем расхождения в структуре и акцентах.

Женевский университет традиционно опирается на модель, ориентированную на практику и тесную связь с международными институциями. Обучение строится по принципу максимального погружения: студенты проводят значительное количество времени в профессионально оборудованных переводческих кабинках, участвуют в ролевых играх, симуляциях конференций и проходят стажировки в таких организациях, как ООН, ВОЗ и ВТО, штаб-квартиры которых находятся в Женеве. Подобная практика обусловлена исторически сложившейся ролью Швейцарии как центра международной дипломатии и многоязычного взаимодей-



ствия. Программа рассчитана на быстрое встраивание выпускника в рынок труда, что требует высокого уровня практической подготовки, стрессоустойчивости и умения работать в условиях, приближенных к реальным (University of Geneva, 2024).

Программы в США, в частности в Middlebury Institute, отражают американскую традицию прагматического образования, где акцент делается на гибкость, междисциплинарность и технологическую оснащённость. Здесь синхронный перевод преподаётся не как изолированная дисциплина, а как компонент более широкой коммуникативной практики, включающей аспекты публичной дипломатии, юриспруденции, медицины и делового общения. Студенты осваивают также навыки работы с CAT-инструментами, системами удалённо-

го перевода, получают подготовку по вопросам этики и работы в условиях конфликта интересов. Это формирует универсального специалиста, способного адаптироваться к различным профессиональным контекстам (AISC, 2022).

Российская модель, напротив, в большей степени следует академической и филологической традиции. Учебные планы МГЛУ и СПбГУ по-прежнему ориентированы преимущественно на лингвистические дисциплины: сопоставительная грамматика, стилистика, теория перевода занимают значительное место в программе. Практика перевода, в том числе синхронного, появляется на более поздних этапах и часто реализуется в условиях, далёких от реальных — из-за недостатка оборудования, перегруженности преподавателей, а также из-за от-



сутствия прямых связей с работодателями, заинтересованными в синхронистах. Это связано с институциональной инерцией, ограниченными бюджетами, а также с отсутствием достаточного количества преподавателей-практиков (Кашкин, 2018; Беляева, 2021).

Различия в учебных планах обусловлены, прежде всего, культурными и институциональными особенностями. Например, в странах с долгой историей международного сотрудничества (Швейцария, Бельгия, Люксембург) подготовка синхронистов изначально развивалась под потребности международных организаций — это видно на примере Женевского университета, где студенты уже на ранних этапах обучения привлекаются к практике в структурах ООН (University of Geneva, 2024).

В США синхронный перевод часто рассматривается в более прикладном и междисциплинарном ключе. Программы ориентированы на подготовку гибких специалистов, способных работать в правовой, медицинской и бизнес-среде. В российских реалиях синхронный перевод до сих пор воспринимается как элитарное направление в рамках классического лингвистического образования, доступное ограниченному числу студентов, что также сказывается на структуре программ.

Кроме того, важную роль играют технологические и финансовые ресурсы. Не все вузы могут позволить себе полноценные тренажёры, кабины, программное обеспечение и доступ к международным

практикам. Это создаёт барьеры, особенно в странах с централизованной системой образования.

В последние годы в образовательных практиках подготовки синхронных переводчиков обозначился ряд устойчивых и значимых тенденций, отражающих не только внутреннюю эволюцию профессии, но и внешние вызовы — цифровизацию, глобализацию и трансформацию коммуникационных сред. Эти тенденции затрагивают как структуру учебных программ, так и методологические установки преподавания, а также требования к компетенциям выпускников. Среди них можно выделить:

1. Интеграция технологий в учебный процесс. Одной из наиболее заметных тенденций стала активная технологизация обучения. Современные программы всё чаще включают использование специализированного программного обеспечения, моделирующего условия реальной синхронной работы. В частности, в Женевском университете и в Middlebury Institute of International Studies (MIIS) студенты регулярно работа-













ют с цифровыми платформами, такими как SpeechLogger, EVS или InterpreSim, которые позволяют проводить тренировки в режиме, приближенном к профессиональному: с задержкой сигнала, отслеживанием пауз, анализом темпа речи и автоматической обратной связью (University of Geneva, 2024). Эти инструменты не только облегчают процесс овладения техникой синхронного перевода, но и формируют навыки самооценки и саморефлексии, которые необходимы в условиях самостоятельной профессиональной деятельности.

2. Формирование надпрофессиональных компетенций (soft skills). Современное понимание профессии синхронного переводчика включает не только владение языками и техниками перевода, но и целый спектр личностных и поведенческих характеристик. Международные стандарты, в том числе руководства Международной ассоциации конференц-переводчиков (AIIC, 2022), подчёркивают необходимость развития таких качеств, как стрессоустойчивость, способность к концентрации, коммуникативная гибкость, а также умение работать в многоязычных и мультикультурных командах. Кроме того, большое внимание уделяется профессиональной этике — вопросам конфиденциальности, нейтральности и ответственности за точность передачи информации. В ответ на эти вызовы многие зарубежные программы включают модули по психолингвистике, конфликтологии, управлению вниманием и даже методам телесно-ориентированной релаксации.

3. Модульность и индивидуализация образовательных траекторий. Ещё одной важной тенденцией становится гибкость образовательного процесса и индивидуализация подготовки. Во многих зарубежных вузах традиционная линейная структура программ постепенно заменяется модульным подходом, где студенты могут выбирать не только специализацию (например, перевод в сфере медицины, права или дипломатии), но и формат освоения материала (онлайн-курсы, интенсивы, практикумы). Это позволяет учитывать индивидуальные особенности и профессиональные интересы обучающихся, а также более эффективно формировать востребованные на рынке компетенции.

4. Интернационализация образовательного пространства. Наконец, всё более заметной становится тенденция интернационализации переводческого образования. Современная подготовка синхронных переводчиков невозможна без погружения в реальные многоязычные контексты. Поэтому университеты активно развивают академическую мобильность, организуют совместные образовательные проекты, стажировки и программы двойных дипломов. Так, Женевский университет и MIIS предлагают студентам участие в международных конференциях и стажировках в структурах ООН, а российские вузы (в частности, МГЛУ и СПбГУ) участвуют в программах Erasmus+, DAAD, а также иницируют двусторонние соглашения с вузами Европы и Азии (MGLU.ru, SPBU.ru). Это способствует не только



расширению языкового и культурного кругозора студентов, но и формированию у них представления о глобальных стандартах профессии. Таким образом, интернационализация не только усиливает качество подготовки, но и делает выпускников более конкурентоспособными на международном рынке труда.

Говоря о перспективах развития подготовки синхронных переводчиков, можно выделить три ключевых направления, каждое из которых отражает глубокие изменения в профессии и образовательной практике. Во-первых, возрастает значение практико-ориентированности, обеспечивающей формирование устойчивых профессиональных навыков через регулярное моделирование реальных условий перевода (Беляева, 2021). Во-вторых, усиливается технологическая составляющая подготовки: цифровые платформы, системы удалённого перевода и инструменты искусственного интеллекта становятся неотъемлемой частью образовательного процесса, требуя от студентов и преподавателей высокого уровня цифровой грамотности и адаптивности (AIIC, 2022). В-третьих, формируется новая парадигма переводческого образования, ориентированная на интердисциплинарность и гибкость: современный переводчик — это не только специалист по языку, но и культурный медиатор, профессионал, владеющий предметной областью и способный действовать в мультиконтекстной среде (Pöchhacker, 2004).

Эти направления развития требуют координированных усилий всех участников образовательного пространства: университетов — в разработке гибких программ и современных методик; государства — в поддержке инфраструктуры и кадрового потенциала; профессиональных ассоциаций — в формировании стандартов и предоставлении экспертной оценки; и, наконец, самих студентов — в готовности к постоянному обучению, переосмыслению своей профессиональной роли и активному взаимодействию с глобальной профессиональной средой.

Заключение. Сравнительный анализ образовательных программ по подготовке синхронных переводчиков в Женевском университете, Middlebury Institute и ведущих российских вузах (МГЛУ, СПбГУ) показал, что, несмотря на принадлежность к разным образовательным традициям и научным школам, все модели в целом стремятся к решению общей задачи — формированию специалиста, способного эффективно функционировать в условиях глобализирующегося и динамично трансформирующегося коммуникативного пространства. Отличия заключаются в акцентах: европейская школа демонстрирует тесную интеграцию с международными институтами и высокую степень практико-ориентированности; американская модель отличается прагматизмом, междисциплинарностью и технологическим насыщением; российская же система сохраняет фундаментальность филологической базы, опираясь на акаде-

мическую глубину и традиции лингвистической подготовки.

Кроме того, актуальной тенденцией является переход к модульной и индивидуализированной структуре образовательных траекторий, что позволяет учитывать как профессиональные интересы обучающихся, так и реальные потребности рынка переводческих услуг. Не менее значимой является и интернационализация образовательного пространства: академическая мобильность, совместные программы и стажировки в международных организациях обеспечивают будущим переводчикам доступ к аутентичному профессиональному опыту и расширяют горизонты их профессиональной идентичности.

В совокупности эти факторы свидетельствуют о том, что устойчивое развитие подготовки синхронных переводчиков возможно лишь при условии гармоничного сочетания традиционных академических основ и инновационных подходов, отражающих актуальные потребности рынка и перспективные направления развития профессии. Следовательно, успешные образовательные модели будущего будут опираться на междисциплинарность, технологическую интеграцию и глобальную кооперацию, что позволит формировать специалистов нового поколения — переводчиков, способных не только адаптироваться к вызовам современности, но и активно участвовать в формировании новых стандартов профессиональной деятельности.

### Список использованной литературы:

1. AIIC (International Association of Conference Interpreters). (2022). Professional Standards and Training Recommendations. Retrieved from: <https://aiic.org>
2. Кашкин В. Б. (2018). Теория и практика перевода: учебное пособие. Воронеж: ВГУ.
3. Официальный сайт МГЛУ. (2024). Доступно на: <https://linguanet.ru>
4. Официальный сайт СПбГУ. (2024). Доступно на: <https://spbu.ru>
5. Официальный сайт University of Geneva. (2024). Доступно на: <https://www.unige.ch/fti>
6. Беляева, Л. А. (2021). Современные тенденции подготовки устных переводчиков: российский и зарубежный опыт. // Вопросы прикладной лингвистики, №3, с. 76–88.
7. Pöchhacker, F. (2004). *Introducing Interpreting Studies*. London: Routledge.





**Muxlisa SABIROVA,**  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

# Gender stereotiplik masalasi va uning Internet matnlarida ifodalanishi

Zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida bugungi kunda "stereotip" tushunchasi faol qo'llanmoqda. Jumladan, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va sotsiolingvistikada mazkur tushunchaga tilshunoslikning turli burchaklaridan har xil qarashlar shakllangan.

Har bir inson hayoti davomida o'z tajribasini tartibga solish, tizimlashtirish va birlashtirish uchun yordam beradigan barqaror obrazlar, shakllar va qoliplarni topishga intiladi. Aynan shu umumlashgan obrazlar va harakatlar, xulq-atvor va ong, takrorlanib, odamlarning o'ziga nisbatan barqaror munosabatini keltirib chiqaradi, olimlar ularni stereotiplar deb atashadi. [1] Ularning roli bugungi kunda tobora ortib bormoqda, chunki ular hayotda tezroq mo'ljallanish imkonini beradi, shu bilan birga aqliy faoliyat sarfi ma'lum darajada kamayadi. Ular haqli ravishda ham individual, ham ijtimoiy ongning muhim elementlariga aylanmoqda.

Stereotip tushunchasi ilk bor 1796-yilda fransuz nashriyotchisi F.Dido tomonidan bosmaxona amaliyotiga o'z ixtirosi – kitob bosish narxini pasaytirish imkonini beruvchi usulni joriy etgan vaqtda qo'llangan. Ilgari har safar matn yangidan terilgan bo'lsa, Dido terilgan matnlarni qoliplar ko'rinishida saqlashni taklif qiladi. Bu qoliplardan keyinchalik metall plastinkalar tayyorlangan. Dido o'z ixtirosi nomini ikkita yunoncha “στερεός” “qattiq” va “τύπος” “tasvir” so'zlarni birlashtirgan holda “stereotip” deb ataydi. Didoning ixtirosi nafaqat Fransiya-da, balki boshqa mamlakatlarga ham tarqaladi, stereotip so'zi esa kasbiy sohadan kundalik so'zlashuv tiliga kirib keladi.[2; 19-20]

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalolingvistika yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda gender mavzusining ko'paygani, jamiyatda erkak va ayolning biologik va fiziologik farqlanishi bilan bir qatorda, nutqi, xulqi, muloqot jarayonida til birliklarini qo'llashdagi turfa xilliklarni o'rganishga alohida e'tibor kuchaydi. Bu, avvalo, tadqiqotchilarning atrofimizdagi dunyo haqidagi tasavvurlar gender omili ta'sirida qanday namoyon bo'lishini tushunishga intilishlari va “voqelikni til birliklari va shakllari orqali idrok etishdagi

gender stereotiplarni” aniqlashlari bilan bog'liq. Gender “inson jinsining ijtimoiy va madaniy belgilangan o'ziga xos xususiyati” [3; 28] sifatida sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik va boshqa bir qator gumanitar fanlarning tadqiqot mavzusiga aylandi.

Ma'lumki, gender alohida ijtimoiy muammo hisoblanib, unga butun bir ijtimoiy omillar tizimi ta'sir ko'rsatadi: insonning ijtimoiy mansubligidan tortib, nutqiy vaziyatgacha hamda shaxsning gender o'ziga xosligini belgilashdagi individual qarashlarigacha alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, gender sotsiolingvistik ma'noda insonning jamiyatdagi xatti-harakati va hayot faoliyatini shakllantiruvchi stereotiplar, qadriyatlar va munosabatlar tizimidan iborat. Bu tizim nafaqat ijtimoiy (barcha shaxslar uchun umumiy) tasavvurlar asosida quriladi, ya'ni erkaklik va ayollik xususiyatlari qanday ekanligi va qanday bo'lishi kerakligi haqidagi, balki alohida shaxslarning o'ziga xos qarashlarini aks ettiruvchi individual tasavvurlar asosida ham shakllanadi.

Gender bo'yicha tadqiqotlar dastlab G'arbda rivojlana boshlagan. Ingliz tilidan o'zlashgan “gender” atamasi grammatik rod kategoriyasini anglatib, 1968-yilda amerikalik psixoanalitik R. Stoller “Jins va gender: erkaklik va ayollikning shakllanishi haqida” kitobini chop etgandan so'ng ijtimoiy jins ma'nosini kasb etadi. (Stoller, 1968) R. Stollerning fikriga ko'ra, gender psixologik va madaniy omillarga asoslangan tushuncha bo'lib, biologik jins bu jihatlarni inobatga olmaydi.

K. Uest va D. Zimmermannning fikriga ko'ra, “gender shaxsiy, psixologik xususiyatlar majmuasi yoki rol emas, balki o'ziga xos ijtimoiy yaratish mahsulidir”. [4; 35] Erkak va ayol bo'lish – bu shunchaki erkak va ayol anatomiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanish emas, balki jamiyat va madaniyat tomonidan



ijtimoiy me'yorlar va tuzilmalar asosida shakllantirilgan inson bo'lishidir. Gender atamasi mana shu nuqtada jins atamasidan farq qiladi. Olima Sh. Usmonova ham "jinsga faqat biologik hodisa sifatida yondashish mazkur kategorial tushunchani toraytirib, yuzakilashtirib qo'yadi, chunki masku linizm (jasorat) va feminizm (nazokat) bir tomondan psixikaning filogenetik bog'langan xususiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan ontogenezda to'planadigan sotsiomadaniy hosiladir. Zamonaviy sotsiologlar va faylasuflar "jins" va "gender" tushunchalarini qarama-qarshi qo'yishadi" [5; 223] degan fikrni ilgari suradi. Jamiyatda ayol yoki erkak bo'lish jinsiy farqni ko'rsatsa, ularning jamiyatdagi o'rni, roli, maqomi, kasb-kori, tasavvurlari, dunyoqarashi, nutqiy muloqotidagi farqlar esa gender tafovutni belgilab beradi.

Ma'lumki, jamiyatda ayollarning nafisligi, nozik xilqat egalari ekanligi, muloyimligi, uy-ro'zg'or ishlaridagi faolligi, erkaklarning esa qat'iyatligi, liderligi va kuchliligi haqidagi gender stereotiplar nutqiy muloqotda ularning jamiyatdagi mavqe va rollariga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayollar itoatkor va

tobe bo'lishlariga qaramay jamiyatda rahbar lavozimida bo'lganida xarakterida keskinlik, qat'iyatlilik kabi xususiyatlar ham mujassam bo'ladi. Ayollar "himoyasiz va zaifdirlar"; "ayol faqat uy ishlari bilan shug'ullanishi kerak" kabi jamiyatda shakllangan stereotiplar o'rnini bugun rahbar ayollarning ko'paygani va Internet matnlarida ijobiy fikrlarning berilishi rahbar ayollarga nisbatan ijobiy stereotiplar shakllana boshlaganidan dalolatdir. Masalan, "*Hilola Umarova O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining ta'limni isloh qilish bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. Umuman, bugun e'lon qilingan tayinlovlarda Prezident Administratsiyasi rahbariga tayinlangan o'rinbosarlar va kotibiyat mudiri (jami 6 nafar)ning 4 nafari ayol kishi ekani juda yaxshi xabar, men bu o'zgarishlarni yoqlayman. Avvalo, 2 nafar maktab o'quvchisining onasi, qolaversa, ayollar va erkaklar teng huquqliligini targ'ib qiluvchi faol sifatida yagona ayol vazir Hilola O'ktamovnaning faoliyatini diqqat bilan kuzataman. Eng katta va muammoli sohalarimizdan biri bo'lgan umumta'limning cheksiz muammolari bilan kurashib optimizmini yo'*



qotmaganiga tan beraman. Hilola Umarovani juda ko'p tanqid qilishadi. Lekin u rahbarlik qilgan yillari bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni xolis tan olish kerak... Hilola O'ktamovnani yangi lavozimda ta'lim uchun va xalq uchun manfaatli tashabbuslar bilan ko'ramiz degan umiddaman. Yangi tayinlangan barchaga, xususan, ayollarga omad va muvaffaqiyat tilayman!" (Shahnoza Soatova blogi)

Ma'lumki, insonning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy mavqeyi va boshqa ijtimoiy xususiyatlari har bir madaniyat va tilda o'ziga xos tarzda voqelanadi. Ayniqsa, yoshi ulug' ayollar nutqida uchraydigan lingvomadaniy birliklar erkaklardan farq qiladi. Yoshi ulug' ayollar nutqida maqol, frazeologizmlar, olqish va qarg'ishlarning berilishi, erkaklar nutqida esa vulgarizmlarning berilishi nutqda gender nutqiy stereotipik farqni yuzaga chiqaradi. Misolga e'tibor qaratsak:

– Baloginangni olay, Ashur, o'n kungina keyin chaqirsang, Girmon uyingga kep qo'yadimi?

– Girmon Maskovga kep qo'ydi, momo, Maskovga kep qo'ygani – uyimga kep qo'ygani.

– Hech bo'lmasa, chillasi chiqsin, Ashurjon, keyin nima desang, mayli.

– Gitlir o'g'lingizning chillasi chiqishini kutib turadimi, momo? Istalin bova chillangizni tushunadimi? Hozir o'g'lingizni chiqarmasangiz, melisa kelib opketadi.

– Urush mening bittagina bolamga qarab qoptimi, Ashur, insofing bormi?

– Adolat momoning bolasi ikkitamidi? Yo boshida eri bormidi? Rais boboning bolasi ikkitamidi, momo? Avval chiqardi-ku, o'g'lini. Ko'pga kelgan to'y-da, momo, chidaymiz.

– Hah, to'yginang boshingdan qolsin! Sahobiddin! Chiq, bolam, narsalaringni xaltaga sohib qo'yganman. E, qirg'in kelsin, shu urushni boshlaganlarga! (Oyina.uz 05.05.2025)

Matnda qo'llangan baloginangni olay, to'yginang boshingda qolsin!, e qirg'in kelsin, shu





*urushni boshlaganlarga* qarg'ishlari ayol nutqiga tegishliligi va yoshi ulug'ligini ko'rsatadi. Odatda, yoshi ulug' ayollar nutqida olqish va qarg'ishlarning uchrashi nutqning individualligini ko'rsatadi. Shuningdek, yuqoridagi matnda oddiy qishloq ayolining nutqi berilgan. Odatda, ma'lumoti o'rta va undan past bo'lgan jamiyat vakillari voqea va hodisalarni o'z kognitiv bilimlari asosida tasvirlashadi va o'z nutqida voqelantiradi. Yuqoridagi momo nutqida ham *Girmon, Maskov, Gitlir* birliklarining berilishi, uning oddiygina qishloq ayoli ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, Internetdagi publitsistik mazmundagi matnlarda tahliliylik, obrazlilik ustunlik qiladi. Bu turdagi matnlarda subyektiv munosabat ham bo'rtib turadi. Gender stereotiplarda erkaklar nutqining dag'alligi, qo'polligi, vaziyat taqozo qilganida vulgarizmlarni qo'llashi haqida tasavvurlar shakllangan. Agar u jamiyatda hammaga birdek taniqli, ziyoli shaxs hisoblanrsa, u erkakning so'kish, haqorat so'zlari-

ni qo'llashi noodatiy hol hisoblanadi. Matnga e'tibor qaratsak: *Mirtemir akani o'ziga ham tushunarsiz bir mavhum hayajon bosib, G'afur akaga mo'ltirab qarab turar edi. Oqsoqol she'riy maktubni qo'liga olib, birdan portladi: – Bu padaringga la'nat lo'ttivozga namuncha qulluq qilasanlar! – deb qo'lidagi she'riy maktubni otib yubordi. Qog'ozlar xona bilan bir bo'lib to'zg'ib ketdi. Shoirlar nima deyishlarini bilmay qotib qolishdi. G'afur aka masalani yana ham chuqurlashtirdi. – Bu ahmoq svolochga namuncha ta'zim qilmasalaring?! “Axir o'zingiz bosh-qosh edingiz-ku? Qolaversa, bu she'riy maktubning mualliflaridan birisiz-ku. Nega bu gapni Toshkentda, hukumatimiz huzurida o'qib, muhokama qilganimizda aytmadingiz?!” deyisholmaydi bechoralar. Buyurganlar o'zimizning hukumat, yozganlar bular. Qani, yozmay ko'rsinlar-chi! Yozsayam bir balo, yozmay sayam bir balo... Endi esa oqsoqolning injiqligi ortiqcha bo'lib turibdi.* (Oyina.uz 10.05.2025)



Yuqoridagi matnda G'afur G'ulomning, ya'ni yozuvchi, ziyoli shaxsning nutqida qo'llangan so'kish, haqorat so'zlari o'sha davrdagi rahbar Xrushchevga nisbatan salbiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Matnda sarlavhaga chiqarilgan "Bu lo'ttivozga namuncha qulluq qilasanlar! – Xrushchevni so'kkan G'afur G'ulom" birliklari ham jamiyat vakillari kognitiv ongida "ziyoli shaxsning so'kishi nutqiy odat me'yoriga zid"ligi haqidagi stereotiplarni parchalab, ijtimoiy roliga, ya'ni erkakligiga urg'uni kuchaytiradi.

Musulmon diniga mansub ayol nutqi boshqa din vakillari nutqidan tubdan farq qiladi. Masalan, o'zbek jamiyatida rafiqa rolidagi ayol nutqida ibo, hayo kabi xulqiy xususiyatlar ustunlik qiladi. Shuningdek, turmush o'rtog'iga nisbatan hurmat tamoyiliga asoslangan turli murojaat birliklarining qo'llanishi, ayniqsa, yangi turmush qurgan oilalarda onasining ismi bilan murojaat qilishi nutqiy etiket ko'rinishlaridan hisoblanadi. Misolga e'tibor qaratsak:

– *Humayro, meni kechir, to'yni oldinroq qil-sak bo'larkan.*

– *Xudoning aytgan kuni bo'ladi-da, mo-*

*momning o'g'li, kechir demang.*

– *Kelin bo'lib, kelinlarday yayrashga ham ul-gurmading, Humayro?*

– *Unday demang, men ... baxtliman, mo-momning o'g'li.*

– *Baxt deysanmi, Humayro? Bir oygina eringni tushingda ko'rganday bo'lib qolganing baxtmi?*

– *Shuncha qizning ichidan menga uylanga-ningizning o'zi menga baxt.*

– *Meni kut, azizam! Urush tugasin, keyin bir kun ham seni yolg'iz tashlab, bir yerga ketmay-man.*

– *Kutaman, momomning o'g'li, kutaman.*

– *Men, albatta, qaytib kelaman, Humayro, birov bir nima desa, ishonma!*

– *Ishonmayman, momomning o'g'li, ishon-mayman! Sizni o'lgunimcha kutaman! (Oyina. uz 05.05.2025).*

Gender stereotiplari – bu ikkala jins vakil-larining fazilatlari, xususiyatlari va xulq-atvor normalari, ularning tilda aks etishi haqidagi madaniy va ijtimoiy jihatdan aniqlangan fikrlar. [6; 95] Gender stereotiplar mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borgan rus olimi M.V.Garanovich





gender til stereotip (GTS) va gender nutq stereotipi (GNS)ni farqlashni taklif etadi.[7] Gender til stereotipi (GTS) – bu til egalarining erkak va ayol fazilatlarini haqidagi muayyan tasavvurlari bo‘lib, ular tilda o‘z aksini topadi. Mohiyatan, bular insonning ijtimoiy xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, nafaqat ma‘lum bir ma‘noni anglatadi, balki o‘ziga xos ma‘no-mazmunlarga ham ega. Bu ma‘no-mazmunlar ushbu so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishini oldindan belgilaydi va ularning lisoniy stereotiplarini shakllantiradi.

Gender nutqiy stereotipi (GNS) – bu shaxslar ongida amal qiladigan erkaklar yoki ayollarning nutqiy xatti-harakatlarining muayyan qolipidir. Bunday talqin gender stereotiplarini sotsiologiya muammolari doirasiga kiritib, ijtimoiy qatlamlarning til egalarining ongida

GNSning amal qilish xususiyatlariga ta‘sirini hisobga olish imkonini beradi.[7]

Shunday qilib, insonning turli xil shaxsiy sifatleri (psixologik xususiyatlardan tortib ijtimoiy rollargacha) va nutq xatti-harakatlari haqidagi gender tasavvurlari nafaqat stereotipik (ya‘ni ijtimoiy jihatdan umumlashtirilgan), balki “erkakcha” va “ayolcha” nutqiy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi shaxsiy tasavvurlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu tasavvurlar subyektiv tajriba davomida shakllanadi. Ushbu nuqtayi nazar-dan kelib chiqib, inson nafaqat jamiyatda mavjud bo‘lgan gender stereotiplarini takrorlashi, balki ularni o‘zgartirishi va hatto buzishi ham mumkin. Shu sababli, gender stereotiplarining bunday tuzilmasi individlarning lisoniy ongida gender omilining namoyon bo‘lishini sotsiologiy jihatdan o‘rganishni taqozo qiladi.

### Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Шестопалова О. Типология социальных стереотипов. [https:// elar.urfu.ru /bitstream/10995/21797/1/ uiro-2007-51-16.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/21797/1/uiro-2007-51-16.pdf)
2. Вилинбахова Е. Стереотип в лингвистике: объект или инструмент исследования? // Сборник научных статей по материалам Первой конференции-школы «Проблемы языка: взгляд молодых ученых» – Москва, 2012.
3. Усманова М. Гендерная специфика когнитивных моделей ситуаций (на материале устных спонтанных монологов): Учеб. пособие по спецкурсу; Перм. ун-т. – Пермь, 2006.
4. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера (пер. Е. Здравомысловой) / Под. ред. А. Клецина. – Москва, 1999.
5. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2022.
6. Ниязова Г. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол. фан. буйича фалс. д-ри. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022.
7. Гаранович М. О социолингвистическом подходе при изучении функционирования гендерных стереотипов в языковом сознании носителей языка // <https://cyberleninka.ru/article/n/o-sotsiolingvisticheskom-podhode-pri-izuchenii-funktsionirovaniya-gendernyh-stereotipov-v-yazykovom-soznanii-nositeley-yazyka>



**Yorqinoy KOMILOVA,**  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

# YETAKCHI AYOLLAR SIYOSIY PORTRETI: GENDER STEREOTIPLAR VA KONSEPTUAL MODEL

“Napoleon jurnalistga “qalam bilan ko'cha tozalovchi” ta'rifini beradi”[5]. Jurnalist tomonidan yoritiladigan har bir ma'lumot dolzarbligi, jamiyatning turli qarashlariga ta'sir etishi, salbiy stereotiplarni o'zgarishiga turtki berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.



“Stereotip” atamasi yunoncha stereos – qattiq, typos – iz, tamg‘a”[2] ma’nolarini anglatadi. Inson ongida yillar davomida shakllangan va qat’iy qonuniyatga aylangan ushbu qarashlar kuchli ta’sir kuchiga egaligi bilan ahamiyatli. Masalaning dolzarbligi, stereotiplar huquqiy asoslarlarga teng ravishda, boshqaruvda samarali mexanizm sifatida millatlar turmush tarzida asos hisoblanadi. Boshqaruv davlat va jamiyat munosabatlarida yuzaga kelishini nazarda tutsak, stereotiplar siyosiy jarayonlar, siyosatchining shaxsi, uning qarashlarida ham ifoda etadi. Chunki, yetakchi ham aynan stereotiplar muhitida shakllangan shaxs hisoblanadi. Ushbu tushuncha olimlar tomonidan o‘rganilishi, ilmiy asoslar bilan tadqiq etilishi ham stereotiplarning ta’sir qamrovi murakkab ekanligini ko‘rsatadi.

Stereotip ma’lum bir etnik guruhning ijtimoiy-madaniy jihatdan belgilangan mahalliy birlashmasi ekanligini Y. Proxorov, ayol va erkak siyosatchilar, ularning boshqaruvdagi o‘rni, ularga xalqning munosabati, siyosatchilarning qarashlari xususida Y. Babenkova, O. Agrasheva, ayollarning yetakchi sifatida namoyon bo‘lishi, imiji, bunga mos ravishda nutqi, o‘zini tutishi metofora orqali tasniflanishi A. Kaslova, stereotip tushunchasi ma’lum bir millatning hamma uchun umumiy ko‘rinuvchi izi yoki o‘ziga xos belgisi sifatida talqin qilinishi borasida G. To‘lanboyeva, S. Yusupova o‘z tadqiqotlarida ilmiy asoslab bergan. Olimlarning ilmiy fikrlari orqali stereotiplar har bir mamlakat va millatning tarixini, “o‘z”ligini namoyon qilishi, xalqning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirishi, buning natijasida rivojlanishi, taraqqiy etishida muhim hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, fikrimizcha, stereotiplarni 2 katta guruhga bo‘lib tasniflash zarur: birinchidan, ijobiy; ikkinchidan salbiy.

Ijobiy stereotiplar millatning qadriyatiga aylanadi. Masalan, o‘zbek qizlariga xos tarbiya, oilaning or-nomusi sifatida qaralishi, hayosi bilan oilada o‘rin tutishi singari xususiyatlari o‘zbek qizlari, ayollarining umumiy portretini ifodalaydi. Shuningdek, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat stereotipi ham xalqimiz tabiatiga singib ketgan. Salbiy stereotiplar sifatida ayollarning oilada, jamiyatda mustaqil fikr bildirishi mumkin emasligi, ular faqat uy bekasi, farzand tarbiyalovchi, ovqat pishiradigan, tozalikka qaraydigan va buni bajarishga majbur ekanligi, afsuski, stereotip sifatida chuqur ildiz otib bo‘lgan. To‘g‘ri, yillar davomida ushbu qarashlarni o‘zgartirishga urinishlar bo‘layapti, o‘zgarishlar ham mavjud. Ammo, asosan xotin-qizlarga uy-ro‘zg‘or xizmatchisi sifatida qarash hali hanuz parchalangani yo‘q. Ijobiy stereotiplar mazmunida salbiy oqibatlar kuzatilishi ham mantiqan isbotlangan. Ya’ni, o‘zbek qizlarining ibosi, kattalarning ko‘ziga tik qaramaslik, gap qaytarmaslik, erkaklardan doimo bir qadam ortda turishi, erkakdan oldin so‘z aytishi mumkin emasligi ayollarning jamiyatda o‘rin topishida to‘sqinlik qilayotgan omillardan. Masalaning munozarali jihati shundaki, bir mamlakat hududida maqbul sanalgan stereotiplar boshqa davlatda shaxs uchun yo‘qotishlarni olib keladi. Masalan, oilada mustaqil fikr bildirib o‘rganmagan qiz (o‘g‘il bolalar ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha qizlarga shunday talab bo‘ladi) boshqa hududda, mamlakatda qadrsizlanishi, turli tazyiqlarga duchor bo‘lishi aniq. Aslida mustaqil qarashga ega emaslik har bir fuqaroni istalgan hududda “inson”, “shaxs” sifatida ulug‘lanishiga to‘siq bo‘ladigan omil sanaladi. Shu bilan birga, har bir millatga xos stereotiplar millatlararo munosabatlarda ijobiy yoki salbiy natija berishi mumkin.

**Material va metodlar.** Stereotiplar ko'lamini va ta'sir doirasini quyidagicha izohlash mumkin:


- har bir millatga xos stereotiplar;
- millatlarning bir-birini inkor etadigan stereotiplari;
- mamlakatlarning umumiy xususiyatlarini aks ettiradigan stereotiplar.

Shu bois stereotiplar umumiylik yoki noumumiylik mohiyatiga ega. Olimlar mazkur tushunchaning tipik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Ya'ni, "stereotip hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi"[3]. Fikrimizcha, guruhlarda yuzaga kelgunga qadar, avvalo, odamlar ongida paydo bo'ladi va shakllanib, rivojlanib, qarashlari bir-biriga mutanosib kelgach ommalashish vazifasini bajargan. Ammo amalda tatbiqi, millatning stereotipi sifatida dunyo hamjamiyatida mazmun kasb etishida guruhlashish asosiy taraqqiyot omilidir. Stereotiplarning bahs-munozarali mavzusi ayol va erkaklarning davlat va jamiyatda o'rni bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan gender stereotiplari ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda dolzarbligi bilan ahamiyatli.

Yetakchi "obraz"ida ayollarning davlat boshqaruviga kirib kelishi har bir mamlakat siyosiy maydonida qizg'in munozaraga sabab bo'ladi. Hokimiyat aslida erkaklar ishi sifatida qaralishi, erkaklar haqli degan stereotiplarni batamom yo'q qilinishiga erishish juda qiyin. Masalan, tarixga nazar tashlasak,

yunon tarixchisi Gerodot "Tarix" (mil. avv. V asr) asarida quyidagicha fikrlarni keltiradi: "Ahamoniylar davlati asoschisi Kir II mil. avv. 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan"[7]ligi haqida ushbu kitobda to'liq ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur tarixiy dalillar To'maris misolida ayol "obraz"ining mamlakatni boshqarishdagi mahorati, harbiy salohiyati, qudrati, zakovatini namoyon qiladi. Nafaqat yetakchilikda, balki Eron shohi Kir II bostirib kirganida o'z hududi sarhadlarini mardona himoya qila olganligi bilan tarixga muhrlangan. Hanuzgacha nuqtayi nazarimizda saqlanib qolgan ayollarga nisbatan zaifa, maishiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladigan odam sifatida munosabatda bo'lishni birgina To'maris misolida inkor etish mumkin. Aslida har bir ayol yuragida katta jasorat, nozik jussasida tog'day kuch-qudrat, keng dunyoqarash, bilim va mahorat yetarli. Faqat namoyon qilish, buning uchun davlat va jamiyat huquqiy va ijtimoiy sharoit yaratishi masalaning dolzarbligini asoslaydi.

Siyosiy shaxslar, ularning hukmronlik davri, erkak va ayol siyosiy yetakchilarning boshqaruv tendensiyasi, o'ziga xosligini tahlil qilishda mualliflar, jurnalistlarning har bir yo'nalishdagi bilim va ko'nikmasi muhim sanaladi:







Grafikda keltirilgan yo'nalishlarning o'zlashtirilishi siyosiy portret ifodasi, yetakchilarning qiyofasini aks ettirishda mualliflarning salohiyatini namoyon qiladi. Masalan, demokratik davlat AQSHda ham prezidentlik saylovlarida ayol va erkak nomzodlar o'rtasidagi tafovut sezilib qoladiki, ushbu siyosiy jarayonlar jurnalist, olimlar tahlilida siyosiy idrok, tajriba, ixtisoslashuv asosida keng yoritiladi. Ya'ni, mualliflar Y.Babenkova, O.Agrasheva ilmiy tadqiqotlarida AQSH prezidentlik saylovlarida nomzodlar Xillari Klinton va Donald Tramp o'rtasidagi raqobat, nutqiy, dasturiy jihatdan ikki jins vakiliga siyosatchilarning fikri, ularning qo'llab-quvvatlanishida ayol va erkak tushunchalariga asoslanish, shuningdek, ularning siyosiy maqsadlari, va-

zifalari belgilanishida gender xususiyatlarining aks etishi tadqiq qilinadi. Siyosatchilar tomonidan D. Tramp nomzodining qo'llab-quvvatlanishi, buning asosida unda erkaklarga xos mardlik, dadillikka urg'u beriladi. Xillari Klinton saylov dasturlarida ayollar va bolalar qamroviga qaratilgan maqsadlari mutaxassislarning tanqidiy mulohazalariga sabab bo'ladi. Fikrimizcha, davlat rahbari bo'lish uchun ayol yoki erkak nomzod "ayollik" va "erkaklik" "obraz"idan voz kechib, teng qarash bilan maqsadlarini siyosatga moslashtirishi zarurati tug'iladi. OAVning bundagi vazifasi saylov qonunchiligida nazarda tutilgan tenglik asosida targ'ibot olib borilishini ta'minlashdan iborat.

Yetakchi siyosatda o'z o'rnini, fikri, "im-







zo”siga ega bo’lishi uchun faol, tashabbuskor, ilg’or, shu bilan birgalikda, ilmiy, strategik dunyoqarash, muhimi, shaxsga aylanishi shart. Boshqaruv qobiliyati, salohiyati, imkoniyati uzviylashgan nuqtada siyosiy hokimiyat kuchi bevosita yetakchilar qudratiga xizmat qilishi, ya’ni “ayollarning siyosiy rahbariyati ayollarning siyosiy jarayonda faol ishtirok etishi bilan”[8] belgilanadi. Yetakchi ayollar faoliyati xususida I.Tarasova o’z mulohazalarini keltirib o’tadi: “siyosatchi ayol obrazini yaratishda, birinchi navbatda, gender xususiyatlariga emas, balki ayol nomzodning siyosiy afzalliklariga e’tibor qaratish lozim”[6]. Hokimiyat boshqaruvida ayol va erkak yondashuvi bir-biridan farqlanishi tabiiy. Taraqqiyotning muhim unsuri shaffof raqobatdan tashkil topadi. Muallifning mazkur mulohazasi yana bir savolni yuzaga keltiradi, ya’ni ayollarning siyosiy hokimiyatda o’rin olishining afzalliklari nimalarda aks etadi? Dunyo davlat boshqaruvida, rahbarlik lavozimlarida asosan erkaklar boshqaruviga keng imkoniyat yaratilganligi, bu tendensiya huddiki, siyosat faqat erkaklar “ish”i, erkaklarga xos va mos mansab ekanligi davlat va jamiyat “qon tomiri”ga singib ketgan. Ayollar nomzodining davlat va jamiyat hayotiga kirib kelishi, bevosita ishtirok etishi va fikr bildirishi, tub burilishlar hosil qilishga intilishi, siyosiy maydonda ayollarning o’z “iz”i borligini ko’rsatib, isbotlab berishga intilishi siyosiy muhitning o’zgarishi, ramziy ma’noda yangi “qon” bilan ta’minlanishi bilan izohlash mumkin.

Xususan, “siyosiy lavozimlarda ayollar juda kam bo’lsa, siyosiy qarorlar ayollarning ehtiyojlari va afzalliklarini yetarli darajada aks ettirmasligi mumkin”[9]. Mualliflar Z. Hessami, T. Baskaran ilmiy mulohazalari asosida yetakchi ayollar mamlakat miqyosida har bir soha, yo’nalishda faol bo’lishi,

ularning yetakchilik, mansab, hokimiyat, siyosiy vakolatlar doirasida ustuvorligini ta’minlash zarurati dolzarb ekanligini tushunish mumkin. Boshqaruvda muhim rivojlanish jarayonlarini boshlab berishi, siyosiy yangiliklar, o’zgarish, boshqaruv mexanizmi tuzilishi, ishlash ritmi, dinamikasi, siyosiy maydon “atmosfera”sining ham o’zgarishi bevosita yetakchi ayollar, bir “zanjir” singari birlashishi, siyosiy doiralarda qo’llab-quvvatlash, ayniqsa, ayollar huquq va manfaatlari poymol qilinayotgan vaziyatlarda, gender tenglik asosida vaziyatni kompleks baholashda hokimiyatda ayollar safining ko’payishi tub burilish hosil qilishini mulohaza qilish o’rinli. Bunda ayollar har tomonlama ideal qiyofada bo’lishi ham talab qilinadi. Ya’ni, ayol yetakchining siyosiy imijini shakllantirishda gender xususiyatlarni aniqlash juda dolzarb muammoga aylanadi.

Dunyo xaritasiga nazar tashlasak, davlatlarning rivojlanish bosqichlari, hokimiyat boshqaruvi, davlat rahbarlarining almashinuvida deyarli erkak nomzodlar ustunlik qiladi. Siyosat, rahbarlik faqat erkaklar uchun o’rinli degan stereotip shakllanib qolganligi, buning uchun davlat va jamiyatning o’zida ham kurash borayotganligi anglashiladi. Masalan, dunyo hamjamiyatida, shuningdek, O’zbekiston siyosiy boshqaruvida ham rahbar ayollar safi ortib, eng yuqori tizimdan eng quyi tizimgacha ayollarga o’rin berilmoqda. OAVdagi har bir maqola O’zbekistonda ayollar siyosiy faoliyatiga keng yo’l berilayotganligidan dalolat. Xususan, “Qalampir.uz” sayti muxbiri Umar Murodning qisqa xabari OAV tarmog’ida eng muhim axborotni keng omмага havola qildi. “Tanzila Norboyeva Oliy Majlis Senati raisi bo’ldi” sarlavhali xabar va uning quyida rasmiy bayonot ham keltirilib, axborotning ishonchli manbasiga alohida



to'xtalib o'tilgan. Ya'ni, "Tanzila Norboyeva O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi etib tayinlandi"[4]. Mazkur qisqa, ammo, muhim xabar O'zbekiston siyosiy tizimida, boshqaruvda katta qadam tashlangani, ayollar siyosiy faoliyatiga, ularning rahbar sifatida, yangi-cha ishlash, qarash, pozitsiyasini ifodalash, ayollarning keng doirada siyosiy maydonga chiqishlari, ularning gender tenglik masalasi, qolaversa, ushbu dolzarb yangilik dunyo xaritasida mamlakatimizning siyosiy portretiga o'ziga xos va mos yo'li borligini ifodalagani bilan ham ahamiyatli.

Shuningdek, jurnalist Navbahor Imomovning AQSH Davlat kotibining global jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha yordamchisi vazifasini bajaruvchi Elizabet Kennedi Tryudo bilan bo'lib o'tgan suhbatida Markaziy Osiyo xususida tahliliy mulohazalari bayon qilingan, uning negizida davlat rahbarining qizi Saida Mirziyoyeva bilan bo'lib o'tgan suhbat va uning xulosalari borasida fikrlar talqin qilingan. Masalan, "Nafaqat xotin-qizlar huquqlari, tadbirkor ayollar, balki ommaviy axborot vositalari erkinligi borasidagi ham ajoyib ishlarni amalga oshirayotgan fond rahbari bilan uchrashganimdan juda mamnun bo'ldim"[1] – dedi Tryudo. Xorijiy mutaxassislar tomonidan bildirilayotgan mulohazalar siyosiy shaxs xususida talqin, targ'ibotning shaffof belgisi, "ko'zgu"si desak, mantiqan asosli. Sababi, xorijiy vakil siyosiy shaxsning bevosita fikr, mulohazalari, uning barcha yo'nalishlarda bajargan va bajarayotgan ishlari, samaradorligi, mamlakatda siyosiy shaxsning o'rni, unga jamiyatning munosabati va OAVdagi chiqishlari, bir qator talablar asosida o'rganib, so'ng siyosiy shaxsning faoliyatiga baho beradi.

**Xulosa.** Stereotiplarni parchalashga urinish bu jamiyatdagi qarashlar bilan kurashish demakdir. Yangilanishlarni qabul qilishda qarashlar o'zgarimas ekan, u mamlakatni stereotiplar boshqaradi. Shu jihatdan, davlat siyosatidagi ijobiy islohotlar bevosita yetakchi ayollar qamrovining oshishiga xizmat qiladi va bu OAVda aks etadi. Qolaversa, jamoatchilikka ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatli.

Lider ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvdagi faolligi, erkin va mustaqil fikrga egaligi, qat'iyati bilan siyosiy maydonda "iz" qoldirishi, xalqni birlashtira olishi mamlakat muhiti va kelajagining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zgarishlar bir maromda oqib turgan suvning "to'lqin"lanishiga sabab bo'ladi. "Yangilanish"lar barcha mamlakatlar siyosiy tizimida "olqish"lar bilan kutib olinavermasligi OAVdagi misollarda o'z tasdig'ini topdi.

Ammo boshqaruvda hukumatni egallash kurashlardan iboratligini nazarda tutsak, yetakchi ayollar safini kengaytirishda ularning o'zlari ham tashabbuskor bo'lishi, irodali, harakatchan, bilimli, ziyrakligi bilan ustun fazilatlarini ko'rsata olishi, OAVdagi chiqishlarida xalqona nutqiy portretini ifodalashi siyosiy maydondagi mavqeiini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yetakchi ayollar siyosiy portretini gavdalandirish, bunda OAVning o'rni, mualliflarning tahliliy materiallari ko'lamini oshirish, stereotip qarashlarning salbiy ta'siri bilan kurashishda quyidagi fikrlar yuzaga keldi. Ya'ni, gender tenglik masalasi ijrosining ta'minlanishi, siyosiy maydonning ayol yetakchilar uchun keng miqyosda ochilishi, to'siqlarning barham topishi, yetakchi ayollarning hokimiyatning barcha tarmoqlaridagi faoliyati, boshqaruvda ayol siyosatchining yangi-cha ishlash mexanizmini harakatga keltirish

hamda jamiyatda ayollar va bolalar qadrining yuksalishi, ayol shaxs ekanligining tan olinishi, yetakchi ayollarning siyosiy portretini shakllantirish, rivojlantirish, o'ziga xos imijini milliy va xorijiy andozalari asosida ishlab chiqishda OAVning vazifasi, talqini juda mu-

him. Yuqorida keltirilgan mulohazalar ilmiy, nazariy, amaliy tadqiqot jihatidan yanada rivojlantirilsa, siyosiy tizim boshqaruvida ayol yetakchilar safini oshirishga erishiladi hamda dunyo maydonida "o'zbek modeli"ni namoyon qilishda xizmat qiladi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Imamova I. What America's 'Message Diplomat' Told Central Asia. – <https://www.voanews.com/a/what-america-s-message-diplomat-told-central-asia/6817276.html>. (murojaat sana: 11.06.2023).
2. Катуржевская Д. Прочь из моей головы: что такое стереотипы и как с ними бороться // <https://trends.rbc.ru/trends/social/6308b2e59a7947f90dc1bcf8>. (мурожаат сана: 16.06.2023).
3. Маслова В. Лингвокультурология // <http://robotlibrary.com/book/396-lingvokulturologiya-maslova-v-a/46-Page46.html>. (мурожаат сана: 16.06.2023).
4. Murod U. Tanzila Norboyeva Oliy Majlis Senati raisi bo'ldi. – <https://qalampir.uz/news/tanzila-norboyeva-uzbeiston-respublikasi-senati-raisi-buldi-5334>.
5. Nurmatov A., Do'stqorayev B., Mo'minov F., Toshpo'latova N., Maxsumova S. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. – T.: O'zbekiston, 2019. – B.6.
6. Тарасова И. Формирование имиджа женщины-политика (на примере лидеров латиноамериканских стран). – 2008. – Вестник Санкт-Петербургского университета.
7. To'maris // <https://e-tarix.uz/shaxslar/hukumdorlar/519-maqola.html>. (murojaat sana: 11.06.2023).
8. Фатыхова Д. Имидж женщины – политического лидера: региональных аспектов. Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки. – 2011. – № 3(19). – С. 10-17.
9. Hessami Z., Baskaran T. Women as policymakers do make a difference. – 2020. – <https://cepr.org/voxeu/columns>.





**Тимур НИЗАМУТДИНОВ,**  
независимый исследователь  
Самаркандского государственного  
университета имени Шарафа Рашидова

# Формирование и дальнейшее развитие узбекской драматургии (на примере пьесы Саид Ахмада «Бунт невесток»)

Во время создания нового узбекского театра среди просветителей возникли две противоположные точки зрения на традиционный театр. Одна группа полностью отвергала народный театральный жанр, основанный на устной драматургии, считая его неприличной игрой и поверхностным лицедейством, не подходящим для распространения высоких просветительских идей.



Другая группа, наоборот, отвергала элементы и содержание европейского театра, уделяя большее внимание народному театру и устной традиции, утверждая, что узбекскому зрителю чужды произведения, вызывающие сострадание и сопереживание. Они считали, что смех и смеховая культура ближе к узбекскому зрителю. Однако наиболее прогрессивные представители нового театра выбрали третий путь: они изучали европейский опыт, не забывая о традициях узбекского площадного театра и предпочтениях зрителей. Все просветители, несмотря на различные взгляды, согласились в одном - необходимо воспитать нового зрителя. В народных представлениях не было четкого разделения между зрителем и исполнителем, зритель мог вмешиваться в процесс. Теперь же зрители должны были сидеть в зале на скамейках или креслах с достоинством, в то время как актеры выступали на сцене. Однако подготовка зрителей и их восприятие новых театральных форм не прошли без трудностей. В театре демонстрировались несколько

спектаклей в день, включая серьезные пьесы и комедии, с перерывами на музыку и песни. Зрители привыкали к новому театру, где акцентировалось внимание на просветительских идеях, но длинные монологи утомляли их, поэтому актеры начинали импровизировать и использовать традиционные средства театра. Независимо от жанра, актеры больше обращались к внешним аспектам ролей, не углубляясь во внутренний мир персонажей, что иногда приводило к недостатку эмоциональной глубины и психологического анализа в исполнении.

С театральной постановки трагедии «Отцеубийца» М. Бехбуди началась эволюция узбекского театра в европейском стиле. В этой пьесе рассказывается история о Бае, который, не имея образования, стал богатым, а его сын, похоже, повторит его путь. Бай пренебрегает мнениями интеллигента и муллы, которые подчеркивают важность знаний и образования. Они объясняют ему, что в современном мире без науки и образования жить сложно, даже если есть деньги. Необходимо изменить



систему образования, и богатые люди, как Бай, должны поддержать эти изменения. В пьесе показано, насколько правы интеллигент и мулла. Сын Бая, Ташмурад, который пренебрегает знаниями и ведет распущенный образ жизни, решает ограбить отца, что в итоге приводит к его смерти, сделав его «отцеубийцей». Несмотря на простоту сюжета, автор передает важную мысль о необходимости образования. Бехбуди надеется, что новое поколение будет образованным и культурным, и что прогрессивные интеллигенты должны работать над этой целью. Пьеса и ее постановки стали значимым событием в культурной жизни Ташкента, Самарканда и других городов, вызвав такой интерес, что многие богатые люди начали финансировать новые школы с использованием современных методик обучения. Таким образом, просветители продемонстрировали свои идеи не только теоретически, но и на практике. [2; с. 43]

Кроме исторических произведений, которые имеют биографическую направленность, существуют и произведения, критически освещающие советский период, которые полностью соответствуют принципу укрепления независимости. Несмотря на то, что в историко-биографических произведениях описаны события, связанные с личностями начала XX века, подвергавшимися давлению жестокого режима, были также созданы пьесы, раскрывающие непосредственно социальные недостатки. К таким произведениям можно отнести пьесы Уткира Хошимова "Қатағон", Шукруллы "Унсиз фарёд", "Ҳасрат боғи" и другие. Несмотря на разнообразие событий в этих произведениях, их объединяет общая тема – проблема морального кризиса нации. Этот кризис возник искусствен-

но, в результате внешнего вмешательства и давления, ведя к социальной трагедии, отражающей бездушное отношение к человеку и его жизни. Современные и нравственные вопросы, поднимаемые в пьесах, также сформировали особое направление в современной узбекской драматургии. Известно, что современная тема обращается в каждом времени, и в ней поднимаются проблемы нового времени. В независимый период узбекской драматургии изображены люди, которые живут с устаревшими недостатками, либо же изменили свой вид с переходом в новое время. Это направление также можно рассматривать как коллекцию философско-психологических произведений. В них отражаются изменения в сердце и сознании людей в процессе адаптации к новому времени, смены идеалов и их внутренние и открытые страсти. Большинство из них возникли на основе определенных проблем и жизненных ситуаций. К таким произведениям можно привести много пьес, например, "Ноёб нусха" (М. Низонов, М. Исмонкул огли), "Ҳаёт эшик ортида" (С. Сирождидинов), "Шайтон ва фаришта" (С. Имомов), "Бир кошона сирлари" (О. Ёқубов), "Бир қадам йўл" (Усмон Азим), "Умр шомидаги бахт" (Тилаб ва Дилбар Махмудовы) и других. В этих произведениях изображаются разные грани жизни, уникальные особенности и сложности человеческого характера. Кроме того, их жанры также разнообразны. Эти произведения показывают стремление авторов к новизне. Тем не менее, их объединяет общая тема – ценность человека, его мечты и надежды. В названных произведениях рассматриваются различные состояния человеческой психики, такие как вера и долг, моральные обязанности и ответственность, что застав-

ляет зрителей задуматься и действовать. [1; с. 78]

Хотя в пьесе Саида Ахмада главным инструментом является комедия и сатира, элементы метатеатра тоже присутствуют через «сцену на сцене». Невестки разыгрывают собственную жизнь, создавая «театральные» представления, в которых персонажи, находясь внутри, демонстрируют абсурдность некоторых семейных традиций. Этот приём помогает не только усилить комический эффект, но и заставляет зрителей задуматься о театре как о средстве выражения социальных и культурных конфликтов.

В такой структуре пьесы зритель осознаёт двойность происходящего - жизнь персонажей и театральное действие, что само по себе становится объектом размышлений.

Для Саида Ахмада важно показать социальные проблемы через «сцену на сцене», потому что этот приём позволяет ему донести свои идеи до зрителя с максимальной эффектностью, используя несколько ключевых элементов, таких как юмор, сатира, инсценировка и символизм. Такие сцены становятся мощным инструментом для авторского осмысления и критики со-

циальных и культурных проблем, позволяя одновременно раскрывать персонажей и вовлекать аудиторию в размышления о социальных переменах.

Причины, по которым автор использует приём «сцены на сцене» для раскрытия социальных проблем:

1. Многослойность и многозначность - приём позволяет создавать несколько уровней повествования, что помогает не только показать явные, но и скрытые социальные проблемы. Это придаёт тексту глубину и даёт зрителю возможность интерпретировать происходящее на разных уровнях, усиливая воздействие.

2. Создание контраста и преувеличение - автор может использовать преувеличение для того, чтобы показать абсурдность социальных норм и семейных устоев. Пародия на традиции или поведение персонажей высвечивает их недостатки и заставляет зрителей задуматься. Сцены, где невестки вносят элементы театральности в бытовую реальность, становятся сильными комическими средствами, и в то же время подчёркивают бессмысленность некоторых традиций и семейных правил.

3. Юмор как средство критики - позво-





ляют автору использовать юмор как мощный инструмент для критики социальных и культурных проблем. Сатира и гротеск в таких сценах делают тяжёлые вопросы более доступными и привлекательными для зрителя, снижая уровень напряжения и создавая пространство для самоиронии и переосмысления. В разыгрываемых сценах невестки могут использовать абсурдные примеры из своей жизни, что позволяет не только рассмешить зрителя, но и показать, как нелепо могут звучать требования старшего поколения.

4. Показ скрытых конфликтов и эмоций - даёт возможность героям выразить мысли и чувства, которые они не могут озвучить напрямую. Это создаёт возможность для демонстрации скрытых социально значимых конфликтов, таких как давление традиций, борьба за свободу и индивидуальность. Невестки, разыгрывая сцены, выражают свои недовольства и протесты против устаревших традиций, что даёт зрителю возможность увидеть эти внутренние конфликты, не произносящиеся вслух.

5. Вовлечение зрителя в размышления - такой приём позволяет не только развлечь зрителя, но и активизировать его восприятие, побуждая к размышлениям о социальных проблемах. Сцена в сцене, как правило, разрушает четкие рамки сюжета и открывает новые горизонты для интерпретации. Инсценировка позволяет зрителю взглянуть на проблему с разных сторон, увидеть смешение серьёзных тем с комическими моментами, что помогает глубже понять суть конфликта. [6; с. 121]

Основные приёмы раскрытия юмора и сатиры:

- контраст характеров - в центре внимания образ свекрови Фармонбиби, строгой,

традиционной и властной, которая уверена в своём праве управлять всеми аспектами жизни семьи. Её противоположность — невестки, каждая из которых имеет свою индивидуальность и методы “борьбы”. Этот контраст между старшим и молодым поколениями часто приводит к комическим ситуациям. Фармонбиби, указывает на мелочи, например, как правильно готовить плов, а невестки намеренно делают всё наоборот, чем выводят её из себя.

- гиперболоизация - свекровь изображена в карикатурной форме: она настолько авторитарна, что иногда её требования и поведение кажутся абсурдными. Например, её попытки контролировать каждую мелочь в доме — от приготовления еды до того, как члены семьи проводят своё время.

- остроумные диалоги - персонажи общаются через меткие и ироничные фразы, в которых звучат как народная мудрость, так и скрытый протест. Невестки с помощью юмора и сарказма подрывают авторитет Фармонбиби. Одна из невесток шуточно заявляет, что “будет следовать указаниям свекрови”, но делает это так, что выглядит ещё более насмешливо.

- сатира на патриархальные устои - автор осмеивает чрезмерный авторитет старших в узбекских семьях, показывая, как он подавляет молодое поколение. Через комедийные ситуации демонстрируется, что такая строгость часто приводит к нелепым конфликтам, а не к реальному уважению.

- использование народных традиций - в пьесе звучат пословицы, поговорки и притчи, которые часто произносятся в ироничном контексте. Например, когда Фармонбиби, приводит народную мудрость, чтобы оправдать своё поведение, невестки ловко оборачивают её слова против неё.



Метатеатральный приём в “Бунте невесток” позволяет персонажам «выйти за рамки» своих ролей в семье и показать зрителям, что они не просто живут в рамках традиционных семейных порядков, но и являются актёрами в некой «пьесе», в которой играют роли.

Невестки разыгрывают сцену внутри пьесы, что напоминает театральное представле-

ние, создавая метафору для борьбы с авторитарными порядками в семье. Это даёт возможность невесткам выразить свои мысли и протесты в форме театра, а зрителям — осознать, что они наблюдают за искусственно созданной ситуацией. Показать, что традиции и семейные роли, порой, становятся театральными постановками, где каждый играет свою роль, не осознавая её абсурдности.

### Список использованной литературы:

1. Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000
2. Ахмедова В. Вклад жадидской литературы в развитие узбекской драматургии. *Modern Science and Research*, 3(7), 2024.
3. Жураев К. 20-йиллар узбек драматургияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995
4. Рахманов М. Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года. – Ташкент: Изд-во Г.Гуляма, 1981. 251 с.
5. Ризаев Ш. Жадид драмаси. Т., 1997. 94 с
6. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). Т., 1995. 332 с.
7. [https://ziyouz.uz/ru/2012-09-02-11-30-49?id=725:2012-09-08-04-15\\_32&catid=60:2012-09-06-15-51-17](https://ziyouz.uz/ru/2012-09-02-11-30-49?id=725:2012-09-08-04-15_32&catid=60:2012-09-06-15-51-17)





**Mirzoxid TO'XTABOYEV,**  
Namangan davlat texnika universiteti  
Logistika kafedrasini mudiri, dotsent

# Janubiy Koreya tajribasi asosida muhandis kadrlarni tayyorlashda o'quv-ishlab chiqarish bazasini takomillashtirishning o'ziga xosligi

Muhandislik ta'limi texnologik va sanoat o'sishiga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotlarda muhim rol o'ynaydi. Janubiy Koreyaning ushbu sohadagi muvaffaqiyati ta'lim va ishlab chiqarish tizimlarining innovatsion integratsiyasidan kelib chiqadi. Janubiy Koreyaning texnologik rivojlangan iqtisodiyotga aylanishi muhandislik ta'limining taraqqiyotdagi muhim rolini ta'kidlaydi.



Ushbu maqola Janubiy Koreya tomonidan muhandislik ta'limi uchun ta'lim va ishlab chiqarish bazasini yaxshilash uchun qo'llaniladigan pedagogik strategiyalarni o'rganadi, samarali amaliyotlar va mumkin bo'lgan muammolar haqida tushuncha beradi. Maqola Janubiy Koreyaning muhandislik ta'limiga bo'lgan yondashuvini o'rganadi, uning mustahkam ta'lim va ishlab chiqarish bazasiga e'tibor qaratadi va global moslashish uchun taqdim etadigan pedagogik imkoniyatlarni tahlil qiladi.

Sanoat va universitet hamkorligi to'g'risidagi qonun akademik va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni institutsionalizatsiya qiladi. Janubiy Koreyaning Milliy innovatsion tizimi siyosati sanoat o'sishi uchun muhim bo'lgan muhandislik sohalariga e'tibor qaratib,

STEM ta'limiga investitsiyalarni ustuvor qiladi. An'anaviy STEM ta'limining cheklovlarini tan olgan holda, Janubiy Koreya talabalar o'rtasida ijodkorlik va fanlararo fikrlashni rivojlantirish uchun STEAM tizimini joriy qildi. Ushbu yondashuv san'atni an'anaviy STEM sohalar bilan birlashtirib, yanada yaxlit ta'lim tajribasini targ'ib qiladi. Nam-Xva Kang ta'kidlaganidek, "Janubiy Koreyada integratsiyalangan STEAM ta'limi yuqori texnologiyalarga asoslangan jamiyat uchun sifatli STEM ishchi kuchi va savodli fuqarolarni tayyorlashga yondashuvdir [1]". Tashabbus fanlararo muammolarni hal qilishga qodir innovatsion mutafakkirlarni tarbiyalash orqali "konvergeniyadagi iste'dodlarni" rivojlantirishga qaratilgan.







Pedagogikada raqamli transformatsiya ta'limni raqamlashtirish Janubiy Koreyaning muhandislar tayyorlashni modernizatsiya qilish harakatlarida muhim ahamiyatga ega. Aqlli sinf xonalari, elektron o'quv platformalari va moslashuvchan texnologiyalarning integratsiyasi o'qitish jarayonlarida inqilob qildi. Irfan Ayhan (2024) "Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi raqamlashtirish va innovatsiyalar tufayli ajoyib o'zgarishlarni boshdan kechirdi va bu misli ko'rilmagan sakrashga olib keldi", deb ta'kidlaydi [2]. Ushbu transformatsiya pedagogika va o'quv dasturini kengaytirdi, talabalarga raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalar berdi.

Janubiy Koreya muhandislik ta'limi bozor talablariga mos kelishini ta'minlash uchun universitetlar va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlikni samarali rivojlantirdi. Ushbu

sinergiya amaliy mashg'ulotlar, tadqiqot imkoniyatlari va texnologiyani uzluksiz uzatishni osonlashtiradi. Janubiy Koreyaning innovatsion tizimining evolyutsiyasi ushbu hamkorlik ruhini aks ettiradi. Universitet, sanoat va hukumat sektorlari o'rtasidagi hamkorlikdagi patent ma'lumotlarini tahlil qilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "UIG o'rtasidagi hamkorlik faoliyati 1980-yildan 2012-yilgacha rivojlanishning uchta bosqichida sezilarli darajada oshgan".

Muhandislik fakulteti bitiruvchilari global muammolarga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash uchun Janubiy Koreya standartlashtirishni muhandislik o'quv dasturlariga kiritdi. Ushbu tashabbus talabalarni xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar bilan tanishtiradi. Koreyada Standartlashtirish bo'yicha Universitet ta'limini targ'ib qilish (UEPS) bo'yicha tadqiqot "Koreya Respublikasi stan-

dartlashtirish mavzusini akademik darajadagi muhandislik ta'limiga integratsiya qilishda ilg'or" ekanligini ta'kidlaydi [3].

Koreya Ilg'or Fan va Texnologiya Instituti (KAIST) zamonaviy muhandislik dasturlari orqali tadqiqotni sanoat ehtiyojlari bilan integratsiya qilish modeli hisoblanadi.

U doimiy ravishda jahon miqyosida, xususan, muhandislik va texnologiya sohalari da eng yaxshi universitetlar qatorida turadi. Uning asosiy jihatlari:

Tadqiqot yo'nalishi va STEMga e'tibor: KAIST innovatsiyalar va sanoat bilan hamkorlikning kuchli madaniyatini rivojlantirib, tadqiqot va ishlanmalarga ustuvor ahamiyat beradi. Moliyalashtirishning muhim qismi tadqiqot grantlari mahalliy va xalqaro kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalardan iborat. Institut fan, texnologiya, muhandislik va matematika

sohalarida ustunlik qiladi va ushbu sohalarda bakalavriat va aspirantura dasturlarining keng doirasini taklif qiladi. Uning magistratura dasturlari xalqaro miqyosda yuqori baholanadi [4].

Sanoat sohasidagi hamkorlik va tadbirkorlik ekotizimi: KAIST Janubiy Koreya sanoati, xususan, yirik korporatsiyalar ("chaebols") bilan mustahkam aloqalarga ega. Ushbu yaqin hamkorlik qo'shma tadqiqot loyihalari, texnologiyalar transferi va Koreya iqtisodiyotiga hissa qo'shishga tayyor yuqori malakali bitiruvchilarni rivojlantirishga olib keladi. Ko'pgina bitiruvchilar to'g'ridan to'g'ri ushbu kompaniyalarda lavozimlarga kirishadi. KAIST o'z talabalari va professor-o'qituvchilari o'rtasida tadbirkorlikni faol ravishda rag'batlantiradi. U startaplarni yaratish va tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni qo'llab-quvvat-





lash uchun resurslar, maslahat va inkubatsiya dasturlarini taqdim etadi.

**Amaliyot va stajirovkalar:** Talabalar ta'lim jarayonida sanoat korxonalarida amaliyot o'tkazadilar. Bu ularga nazariy bilimlarni amalda qo'llash, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish va ish muhitini his qilish imkonini beradi. Stajirovkalar nafaqat bilim, balki ish tajribasini ham beradi, bu esa kelajakda ishga joylashishda katta afzallik hisoblanadi.

**Loyiha ishlari va o'qituvchilarning malakasini oshirish:** Korxonalar talabalarga amaliy loyihalarni taklif qiladi yoki ularga o'zlarining real muammolarini hal qilishda yordam so'raydi. Bu talabalarga mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga va sanoat muammolarini hal qilishga amaliy yondashuvni o'rganishga imkon beradi [5]. Korxonalar mutaxassislari universitet o'qituvchilariga o'z tajribasi va bilimlarini o'rgatish orqali ularning malakasini oshirishda ishtirok etadilar. Bu o'qituvchilarning amaliy bilimlarini yangilab turish va talabalarga zamonaviy texnologiyalar bo'yicha to'liq ma'lumot berish imkonini beradi.

**Laboratoriya va jihozlar bilan ta'minlash hamda ishga joylashishga yordam berish:** Korxonalar bitiruvchilarni o'z korxonalarida ishga olish orqali ularning ishga joylashishini ta'minlaydi. Bu talabalar uchun ishonchli kelajak va korxonalar uchun malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni kafolatlaydi. Korxonalar universitetlarga zamonaviy uskunalar, dasturiy ta'minot va laboratoriya imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Bu talabalarining amaliy mashg'ulotlarining sifatini oshiradi va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aniq shartnomalar, o'zaro ishonch va doimiy aloqa muhim ahamiyatga ega. Korxonalar va universitetlar o'rtasida



o'zaro manfaatli hamkorlikni yaratish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun malakali muhandis kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Muhandislik tayyorlashda ishlab chiqarish ishtirokining afzalliklari**

Talabalar amaliy, sanoatga tegishli ko'nikmalarga ega bo'lib, mehnat bozoriga tayyorligini oshiradilar. Korxonalar ko'pincha sanoat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan treningdan o'tgan bitiruvchilarni ishga olishni afzal ko'rishadi. Sanoat ta'siriga ega bo'lgan bitiruvchilar kasbiy rollarga yaxshiroq tayyorlanib, ish beruvchilar uchun qo'shimcha o'qitish vaqtini va xarajatlarini kamaytiradi. Kengaytirilgan innovatsiyalar va tadqiqot natijalari hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqot tashabbuslari ilmiy va sanoat uchun foydali bo'lgan texnologik taraqqiyotga yordam beradi. Ushbu loyihalarda ishtirok etgan talabalar qimmatli tadqiqot tajribasiga ega bo'lishadi. Ishchi kuchi tayyorligi ta'limni sanoat ehtiyojlariga moslash orqali korxonalar muayyan tarmoq-














larga moslashtirilgan malakali mutaxassis-  
larni doimiy ravishda ta'minlaydi. Sanoatga  
tayyor ishchi kuchi ishlab chiqarish va milliy  
iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.  
Ta'limni sanoat ehtiyojlariga moslashtirish or-  
qali korxonalar yuqori malakali ishchi kuchini  
rivojlantirishga, milliy samaradorlik va raqo-  
batbardoshlikni oshirishga hissa qo'shadi.

#### **Hamkorlik uchun raqamli platformalar.**

Raqamli platformalar akademiya va sanoat  
o'rtasida aloqa hamda resurslar almashinu-  
vini yaxshilaydi. Masalan, sun'iy intellektga  
asoslangan tizimlar universitet tadqiqot im-  
koniyatlarini sanoat ehtiyojlariga moslash-  
tiradi, hamkorlikdagi tadqiqot va ishlanma  
loyihalarini soddalashtiradi. Koreya Ta'lim  
Tadqiqotlari Axborot Xizmati kabi platforma-  
lar texnologiya uzluksiz hamkorlikni qanday  
osonlashtirishi mumkinligiga misoldir. STE-  
AM (Science, Technology, Engineering, Arts,  
Mathematics) ta'lim tizimini joriy etish mu-  
handislar uchun innovatsion treningni rivoj-  
lantirishga yordam beradi. Eng yaxshi glo-  
bal tajribalar asosida ishlab chiqilgan ushbu  
platformalar zamonaviy muhandislik mu-  
ammolari uchun muhim bo'lgan muammo-

larni hal qilish va fanlararo o'rganishni rag'-  
batlantiradi. Avtomobil dvigatellarini yig'ish  
va demontaj qilishni o'rgatish uchun Virtual  
Reality (VR) tizimlaridan foydalanish chuqur  
o'rganish tajribasini beradi. Ushbu usul mu-  
rakkab protseduralarni tushunishni kuchay-  
tiradi, amaliy mashg'ulotlarga tejamkor va  
samarali alternativani taklif qiladi.

#### **Mintaqaviy sanoat-ta'lim klasterlari.**

Janubiy Koreyaning Daedeok Innopolis kabi  
ixtisoslashtirilgan klasterlari universitetlar,  
sanoat va tadqiqot institutlarini yagona eko-  
tizim doirasida birlashtiradi. Ushbu klasterlar  
bilimlarni uzatish, qo'shma tadqiqotlar va tex-  
nologiyalarni tijoratlashtirish imkonini berish  
orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.  
"Qo'shaloq oliy reja" kabi tashabbuslar doi-  
rasida sanoat va ta'lim o'rtasidagi hamkorlik-  
dagi ta'lim mexanizmlari yangilandi va ama-  
liyotga tatbiq etildi. Bu o'quv va ilmiy-tadqi-  
qot institutlarini, stajirovka o'quv bazalarini  
va muhandislik texnologiyalari ilmiy-tadqiqot  
markazlarini birgalikda qurish va boshqarish-  
ni, shu orqali hamkorlikda ta'limni rivojlanti-  
rishni kuchaytirishni nazarda tutadi.

#### **Global hamkorlik va zamonaviy jihoz-**



**lar:** KAIST kuchli xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, qo'shma tadqiqot loyihalarida, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuv dasturlarida qatnashadi va butun dunyodan yetakchi tadqiqotchilarni jalb qiladi. Institut talabalar va tadqiqotchilarni ilg'or tadqiqot hamda ishlanmalar uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlaydigan eng so'nggi jihozlarga ega [6].

KAIST texnologik innovatsiyalar va sanoat o'sishiga hissa qo'shadigan yuqori malakali bitiruvchilarni ishlab chiqarish orqali Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Institutning tadqiqot faoliyati turli sohalarda ko'plab texnologik yutuqlarga olib keldi.

**Inson kapitalini rivojlantirish:** KAIST Janubiy Koreyaning inson kapitalini rivojlantirishga asosiy hissa qo'shmoqda va mamlakatning texnologik taraqqiyotini boshqaradigan yuqori malakali ishchi kuchini ishlab chiqaradi. Janubiy Koreyadagi va jahon miqyosida boshqa universitetlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi va kuchli sanoat hamkorligi salohiyatini va oliy ta'limga ilmiy-tadqiqot talab qiladigan yondashuvni namoyish etadi.

Xulosa qilib aytganda, KAIST Janubiy Koreyaning texnologik yetakchiligi va iqtisodiy muvaffaqiyati uchun muhim institutdir. Uning tadqiqot yo'nalishi, sanoat hamkorliklari va yuqori malakali bitiruvchilarni tayyorlashga intilishi uning jahon miqyosida ilm-fan va texnologiya sohasidagi yetakchi universitet sifatidagi mavqeini mustahkamladi. Universitetlar va sanoat korxonalarini joriy texnologik tendensiyalar hamda sanoat talablariga muvofiqligini ta'minlaydigan o'quv dasturlarini birgalikda ishlab chiqadilar.

O'quv-ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash uchun mintaqaviy innovatsion klasterlar ishlab chiqilgan. Daedeok Innopolis – Innovatsiyalar va bilimlarni uzatishni rag'bat-

lantiradigan universitetlar, sanoat va tadqiqot markazlari joylashgan. Bunday klasterlar muhandislik fakulteti talabalarini va ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqani rag'batlantiradi, amaliy o'rganishni kuchaytiradi. Daedeok Innopolisga o'xshash mintaqaviy klasterlarni yaratish o'qituvchilar, talabalar va sanoat mutaxassislarini o'rtasida o'zaro hamkorlikni rag'batlantiradi. Bunday ekotizimlar innovatsiyalarni rag'batlantirishi va ta'limning sanoat talablariga muvofiqligini ta'minlashi mumkin.

Ushbu yutuqlarga qaramay, Janubiy Koreya o'quv dasturlarini doimiy yangilash va raqamlashtirishni an'anaviy o'qitish usullari bilan muvozanatlash zarurati kabi muammolarga duch kelmoqda. Biroq, mamlakatning ta'lim sohasidagi innovatsiyalarga sodiqligi uni ushbu muammolarni samarali hal qilishga undaydi.

Ta'lim vazirligining ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'yicha qarashlari "barcha uchun shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshirish"ga qaratilgan bo'lib, har bir o'quvchining qobiliyati va o'quv muhiti uchun optimallashtirilgan tizim yaratishga qaratilgan.

Janubiy Koreyaning muhandislik ta'limi uchun o'quv va ishlab chiqarish bazasini yaxshilashga bo'lgan yondashuvi o'z imkoniyatlarini oshirishga intilayotgan global ta'lim tizimlari uchun yo'l xaritasini taklif etadi. Birgalikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, texnologiya integratsiyasi va mintaqaviy innovatsion klasterlar kabi amaliyotlarni qo'llash orqali davlatlar zamonaviy sanoat talablarini qondirish uchun jihozlangan ishchi kuchini tayyorlashlari mumkin. Bu modeldan olingan pedagogik imkoniyatlar amaliy mashg'ulotlar, uzluksiz ta'lim va ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi muhimligini ta'kidlaydi. Sanoat rivojlanar ekan, bunday

istiqbolli strategiyalar barqaror rivojlanish va innovatsiyalar uchun zarur bo'ladi. Janubiy Koreyaning muhandislik ta'limi uchun o'quv va ishlab chiqarish bazasini yaxshilash tajribasi fanlararo ta'lim, raqamli transformatsiya va sanoat hamkorligi integratsiyasi haqida

qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Shunga o'xshash pedagogik innovatsiyalarni qo'llash orqali boshqa davlatlar tez o'zgaruvchan texnologik landshaft talablariga javob beradigan muhandislik mutaxassislarini ishlab chiqishi mumkin.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Kang NH. A review of the effect of integrated STEM or STEAM (science, technology, engineering, arts, and mathematics) education in South Korea. *Asia Pac. Sci. Educ.* 5, 6 (2019). <https://doi.org/10.1186/s41029-019-0034-y>

2. Ayhan I. (2024). South Korea's Educational Leap Forward: Fostering Reforms in Pedagogy and Curriculum Through Digitalization and Innovation. In *Global Agendas and Education Reforms* (pp. 151–170).

3. de Vries, H. J. (2012). Integrating standardization into engineering education: the case of South Korea. *International Journal of Technology and Design Education*, 22(3), 313–330.

4. Won J., Yujin Ch., and Yoon S. "A metaverse platform for engineering education: Case of South Korea." *International Journal of Internet, Broadcasting and Communication* 13 (2021): 129-134.

5. Kang N. "A review of the effect of integrated STEM or STEAM (science, technology, engineering, arts, and mathematics) education in South Korea." *Asia-Pacific Science Education* 5.1 (2019): 1-22.

6. YOUN J, and Song A. "Simulation Based Printing Engineering Education for Women in Engineering Students in South Korea." *DEStech Transactions on Engineering and Technology Research* (2017).





**Gulsanam NOROVA,**  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

# O'zbek tili tarixi va o'zbek shevalarini tadqiq etish muammolari

O'zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri bo'lib, nafaqat Markaziy Osiyo hududida, balki turkiy dunyoda ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Tilning ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi va bu uning chuqur tarixiy qatlamlarga ega ekanidan dalolat beradi. Bugungi kunda 50 milliondan ortiq inson ushbu tilni ona tili sifatida qo'llamoqda. Shu sababli o'zbek tilining tarixini chuqur o'rganish, uning turli shevalarini lingvistik jihatdan tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy vazifadir.





Shevalarni izchil tahlil qilish va ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlash o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi. Bu esa tilshunoslik bilan bir qatorda tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun ham yangi ufqlarni ochadi.

Bizga ma'lumki, o'zbek tili tarixini o'rganishda uning ilmiy asoslari mavjud bo'lib, xususan, o'zbek tilining shakllanish jarayoni asosan uch bosqichda o'rganiladi:

1. Qadimgi turkiy davr (VI–X asrlar) – O'rxun-Enasoy bitiklari, "O'rxun yozuvlari" davri.

2. Eski o'rta turkiy davr (XI–XIV asrlar) – Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" (XI asr), Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" (XI

asr), Ahmad Yugnakiy "Hibbat ul-haqoyiq" (XII asr).

3. Eski o'zbek tili davri (XV–XVII asrlar) – Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi.

Shuni ta'kidlash joizki, har bir davrda yaratilgan boy ma'naviy meroslarimiz til rivoji hamda shevalarning yanada sayqallanishiga sabab bo'lgan. Birgina, Alisher Navoiy o'zining mashhur "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek tilining boy imkoniyatlarini turkiy tillar doirasida ilmiy asosda yoritib berdi. U tilning imkoniyatlarini fors-tojik tili bilan qiyosiy tahlil qilgan ekan, o'zbek tilining ifoda vositalari, ma'no qatamlari va so'z yasash imkoniyatlari jihatidan naqadar keng imkoni-



yatlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Bu nafaqat adabiy til rivojiga, balki shevalarning lingvistik tahliliga ham katta hissa bo'ldi. Masalan, Navoiy ayrim tushunchalarni ifodalashda turkiy tilning boy lug'aviy zaxirasiga murojaat qilib, "ko'ngil" so'zini fors tilidagi "dil" so'zidan ustun qo'yadi. Chunki "ko'ngil" so'zi faqatgina anatomik ma'noni emas, balki insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari va tuyg'ularini ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu misol o'zbek tilining ma'no nozikliklarini ifodalashdagi ustunligini ochib beradi.

Natijada, Navoiy nafaqat adabiy tilni, balki shevalarni ham ilmiy asosda o'rganishga yo'l ochib berdi. Uning qarashlari bugungi kunda o'zbek dialektologiyasi uchun ham nazariy manba vazifasini o'tamoqda. Chunki shevalarda uchraydigan ko'plab so'zlar va iboralar Navoiy asarlarida ham qo'llangan bo'lib, ularni lingvistik jihatdan izohlashda katta ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki, o'zbek shevalari masalasi XIX asrdan boshlab, avvalo, rus sharqshunoslari, keyinchalik esa o'zbek tilshunoslari tomonidan muntazam o'rganila boshlandi. Ayniqsa, V.V. Radlovning to'rt jildlik "Opyt slovary tyurkskix narechiy" ("Turkiy lahjalar lug'ati tajribasi") asari turkiy tillar va shevalar, jumladan, o'zbek shevalari haqida bebaho materiallarni taqdim etadi[1].

Shu bilan birgalikda, Radlovning ushbu tadqiqoti turkiy tillarning boy lug'aviy manbasini bo'lib, unda o'zbek, qirg'iz, qozoq, uyg'ur, tatar, boshqird, qoraqalpoq va boshqa ko'plab turkiy xalqlar lahjalari materiallari keltirilgan. Xususan, o'zbekcha "qiz" – "ayol jinsiga mansub bola" (umumturkiy so'z, o'zbek, qozoq, uyg'ur va boshqa tillarda uchraydi). "Qop" – "xalta, xurjun" ma'nosida (o'zbek shevalarida keng qo'llanadi). Qirg'izcha – "Ata" – "ota, ota-ona" (umumturkiy, hozirgi

o'zbek tilida "ota"), "Töl" – "to'q" ma'nosida (o'zbekcha "to'q" bilan bir ma'noli).

Qozoqcha – "Jigit" – "yosh yigit, chavandoz" (o'zbek tilida ham ishlatiladi, ammo ko'proq badiiy-uslubiy ma'noda). "Köş" – "ko'ch, ko'chmoq" (o'zbekchadagi "ko'chmoq" bilan bir xil ildizga ega).

Radlovning asari shunday qimmatli ediki, u turkiy tillarda bir so'zning turli shevalardagi variantlarini yonma-yon keltiradi. Masalan, "ko'l" (suv havzasi) so'zi:

o'zbekchada – ko'l,  
qozoqchada – köl,  
qirg'izchada – köl,  
tatar tilida – kül,  
uyg'urchada – köl.

Bu turkiy tillar o'rtasidagi fonetik yaqinlik va tarixiy aloqadorlikni isbotlab beradi.

Turkiy tillarning qadimgi bosqichini o'rganishda eng asosiy manba O'rxun-Enasoy bitiklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar VI-VIII asrlarda turkiy qabilalarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritish bilan birga, qadimgi turkiy tilning fonetik, morfologik hamda leksik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Xususan, ushbu bitiklarda – "teñri teg teñride bolmish tüürük bilge qayan" – "Tangri tomonidan Tangrida yaratilgan Turk bilga qoqon" jumlasini uchraydi.

Bu yerda *qayan* (hozirgi o'zbekchada "xon"), *bilge* ("donishmand"), *teñri* ("Tangri") kabi qadimgi shakllar bugungi o'zbek tilidagi variantlari bilan o'xshashligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy tilning fonetik jihatlari-dan biri "ng" tovushining keng qo'llanishidir (*teñri, yañi*). Morfologik jihatdan esa fe'llarning ko'plik shakllari "lar" qo'shimchasi bilan emas, balki boshqa variantlar orqali ifodalinishi ham uchraydi. Bu jarayon keyinchalik o'zbek tilida adabiy me'yor sifatida mustahkamlandi[2].

O'rta turkiy davrda turkiy xalqlar orasida

## TADQIQOT

---

yirik ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan bo‘lib, ular o‘zbek tilining shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari – turkiy tillarning ilk ensiklopedik lug‘ati hisoblanadi. Unda 7500 dan ortiq so‘z va 300 ga yaqin she‘r, maqol, hikmatli so‘zlar jamlangan.

Masalan, “öz kişi” shakli lug‘atda keltirilgan bo‘lib, bugungi o‘zbek tilida “o‘z kishi” tarzida yashab qolgan. Bu so‘z turli shevalarda ham turlicha ko‘rinish olgan: qarluq lahjasida “o‘z” shakli to‘liq saqlangan bo‘lsa,

qipchoq lahjasida “üz” ko‘rinishida uchrashi mumkin. Farg‘ona vodiysi shevalarida esa “o‘zi” shakli kuchliroq qo‘llanib, “o‘zi keldi” tarzida ishlatiladi.

Shuningdek, Koshg‘ariy lug‘atida keltirilgan “til” so‘zi (ma‘nosi – nutq, til organi) o‘zbek tilida ham saqlangan. Ammo ayrim shevalarda fonetik farqlar mavjud: masalan, Xorazm shevasida “tël” shakli, Qo‘qon atrofi-da esa yumshoq talaffuz bilan “til” shakli keng qo‘llanadi[3].

Koshg‘ariy asarida qayd etilgan maqol-





lar bugungi o'zbek shevalarida ham turlicha saqlanib qolgan. Chunonchi, "Atliq er aybini yashurmas" ("Otliq yigit aybini yashurmas") maqoli bugungi o'zbek tili va uning ko'plab shevalarida uchraydi. Samarqand shevasida bu "Otliq er aybini yashurmas" tarzida deyarli o'zgarishsiz aytilsa, Farg'onada "Otliq kishi aybini yashurmas" shaklida ishlatiladi. "Suv akmasa, ko'l bo'lmas" maqoli esa Toshkent shevalarida "Suv oqmasa, ko'l bo'lmaydi" tarzida uchraydi.

Koshg'ariy qayd etgan "kün" (quyosh)

so'zi bugungi o'zbek adabiy tilida "quyosh" shaklida ishlatiladi. Ammo bu so'zning qadimgi shakllari ayrim shevalarda hanuz yashab qolgan: masalan, Surxondaryo shevasida "kun" so'zi "quyosh" ma'nosida ishlatiladi.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvi, adolat, ilm-ma'rifat haqida yozilgan didaktik doston bo'lib, undagi til normalari turkiy tilning adabiy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, unda bilgili erdem ("bilimli odam") kabi birikmalar bugungi o'zbek tilida ham ma'no-





dosh variantlarda uchraydi.


Shu bilan birgalikda, doston matnida uchraydigan “kün to‘rtulsa, kishi yoruq bo‘lar” (“quyosh chiqqanda odam yorishadi”) jumlasini bugungi o‘zbek tilida ham “Quyosh chiqsa, odam ko‘ngli yorishadi” tarzida ma‘nodosh qo‘llanadi. Samarqand shevalarida esa “Kun chiqqanda odamning ko‘ngli yorishadi” shakli keng tarqalgan. Yusuf Xos Hojib tilida ishlatilgan erdem (“fazilat, yaxshilik”) so‘zi bugungi o‘zbek adabiy tilida “odob”, “yaxshilik”, “fazilat” so‘zlari bilan ma‘nodoshdir. Farg‘ona vodiysi shevalarida bu qadimgi tushunchaga yaqin “arzim” shakli uchraydi.

Har bir davrning o‘z o‘rni, ahamiyati bo‘lgani kabi eski o‘zbek tili davrida ham tarix sahifalarida til tarixining o‘rni hamda shevalar rivoji taraqqiy etdi. Bu davr o‘zbek tilining shakllangan adabiy tili yuzaga kelgan bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodidan keyin til tarixiga beminnat hissa qo‘shgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida

ham o‘ziga xoslikning guvohi bo‘lasan, kishi. Xususan, Bobur ijodidagi “Boburnoma” asari esa nafaqat tarixiy-memuar manba, balki tilshunoslik uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Unda qo‘llangan ko‘plab so‘zlar bugungi adabiy o‘zbek tilida ham faol ishlatiladi. Masalan, bog‘, daryo, qishloq, qo‘rg‘on kabi birliklar[4].

Masalan, “bog‘” so‘zi “Boburnoma”da ko‘p uchraydi. Bobur o‘z asarida Andijon, Farg‘ona va Samarqanddagi chiroyli bog‘larni tasvirlab o‘tadi. Bugungi adabiy o‘zbek tilida ham “bog‘” shaklida ishlatiladi. Lekin Xorazm shevasida bu so‘z “bag‘” tarzida talaffuz qilinadi, Qashqadaryoda esa “bo‘v” shaklida ishlatilishi kuzatiladi.

“Qishloq” atamasi ham Bobur asarida keng uchraydi. U o‘z yurtining manzaralarini tasvirlar ekan, qishloqlar hayoti, odamlarning turmushi haqida yozadi. Hozirgi adabiy o‘zbek tilida “qishloq” shaklida qo‘llansa-da, Farg‘ona vodiysi shevalarida “kishloq” yoki





“qishlaq” tarzida ishlatiladi. Buxoro va Navoiy atrofidagi shevalarda esa “qishlo” shaklida qisqargan talaffuzini uchramiz.

XVII–XIX asrlarda eski o‘zbek tili negizida turli hududiy adabiy maktablar shakllandi. Masalan, Xiva xonligi davrida Munis va Ogahiy o‘z asarlari bilan adabiy til taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa, Qo‘qon xonligida Uvaysiy va Nodira ijodi til tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu davrda adabiy til tarkibida arabcha hamda forscha unsurlar ko‘plab qo‘llangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilining milliy o‘ziga xosligi, xalqning jonli so‘zlashuv unsurlari va shevalar ta’siri saqlanib qoldi. Masalan, Ogahiy asarlarida “oshno”, “orif”, “dilrabo” kabi forscha so‘zlar uchrasa ham, u “yurak”, “ko‘ngil”, “so‘zlashmoq” kabi sof turkiy birliklardan ham keng foydalangan. Bu birliklar Xorazm shevalarida ham aynan shu shaklda qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa jadid adabiyoti o‘zbek tilining soddalashuvi, xalqona ruhning kuchayishi jarayonida katta ahamiyat kasb etdi. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi ijodkorlarning asarlarida adabiy tilda xalq shevalarining ta’siri yaqqol seziladi. Bu jarayon zamonaviy o‘zbek adabiy tilining poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi.

Xususan, Cho‘lpon o‘z she’riyatida Andijon-Farg‘ona shevalariga xos so‘z va shakllardan foydalanadi. Abdulla Qodiriy romanlarida Toshkent shevasining unsurlari ko‘p uchrasa, Fitrat esa o‘z maqolalarida Buxoro hamda Samarqand atrofidagi leksik xususiyatlarni adabiy tilda qo‘llagan. Sheva unsurlari ularning asarlariga xalqona ruh, jonlilik va milliylik baxsh etgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Cho‘lponning she’rlari va hikoyalari Farg‘ona lahjasiga xos shakllar uchraydi. Uning “Sevgi va g‘am” she’rida “Ko‘ngil” o‘rniga “kungil” – “Kungil nega beqaror, sev-

gidanmi yo g‘amdan?”, “Buloqlar” she’rida “Yana” o‘rniga “yene” – “Yene seni ko‘rsam, yene yuzim kulgay”, “Kecha va Kunduz” romanidagi “O‘sha” o‘rniga “usha” – “Usha kecha yulduzlar boshimga qaragan” tarzida qo‘llanilgan.

Shuningdek, Qodiriy romanlarida Toshkent shevasiga xos unsurlar keng qo‘llangan. Uning “O‘tkan kunlar” romanida “Bozor” o‘rniga “buzor” – “Buzorda odam ko‘p edi”, “Qandayin” o‘rniga “qandey” – “Qandey qilib topdik bu baxtni?” tarzda ifodalangan bo‘lsa, “Mehrobdan chayon” romanida “Kelasanmi?” o‘rniga “kelasizmi?” – “Kelasizmi, o‘g‘lim?”, “Qishloq” o‘rniga “qishlaq” – “Qishlaq odamlari kelishdi”, “Deydi” o‘rniga “diydi” tarzda xalq nutqiga yaqinlashish maqsadida ifodalab bergan.

Fitrat esa o‘z maqola va dramalarida Buxoro-Samarqand atrofidagi leksik xususiyatlarni qo‘llagan: xususan, “Kitob” o‘rniga “kitop” – “Kitop o‘quvchi ko‘paymog‘i kerak”, “Darvoza” o‘rniga “darboza” – “Darboza yonida kutar edim”, “Bor edi” o‘rniga “boridi” – “O‘sha paytda bir madrasa boridi” “Shunday” o‘rniga “shunay” – “Shunay deb aytishgan” tariqasida bayon etib o‘tgan.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub bo‘lib, ichida ko‘plab shevalar mavjud. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek shevalari uch asosiy guruhga bo‘linadi: Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi (Farg‘ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo shevalari), Qipchoq lahjasi (Xorazm, Qoraqalpog‘iston, shimoliy hududlardagi shevalar), O‘g‘uz lahjasi (Janubiy Xorazm, Qoraqalpog‘istonning ayrim qismlari, Turkmaniston bilan chegaradosh hududlar). Tilshunos olimlarning izlanishlariga ko‘ra berilgan bu tasnif asosan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarga tayanadi. Xususan,

Toshkent shevasida “kelayapti”, “kevotti” deyilsa, Xorazm shevasida “kevotti”, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Buxoroda esa “kelyapti” shakli ishlatiladi[5].

Samarqand shevasida egalik qo‘shimchalari qisqargan holda ishlatilishi ham ko‘p kuzatiladi. “Kitobim” o‘rniga “kitobm”, “uyimiz” o‘rniga “uymiz”. Farg‘ona shevasida esa ayrim fe‘l shakllari o‘ziga xos: “boraman” o‘rniga “boromman”, “kelaman” o‘rniga “kelomman”.

Fonetik jihatdan shevalar o‘zbek adabiy tilidan sezilarli farqlanadi. Masalan, Toshkent shevasida bola → bala, Xorazm shevasida borayapman → borovman, Qashqadaryo-Surxondaryo shevalarida qadimgi q va y tovushlari saqlanib qolgan bo‘lib, qazmoq, aylanmaq sifatida qo‘llaniladi. Bunday fonetik tafovutlar adabiy tilni me‘yorlashtirish jarayonida muammolar tug‘diradi. Shu sababli fonetik o‘ziga xosliklarni hujjatlashtirish va lug‘atlarda aks ettirish muhimdir.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda hozirgi kunda bir necha muammo mavjud[6]:

– Hududiy shevalarning yetarlicha o‘rganilmagani. Masalan, Surxondaryo viloyatining tog‘li Boysun va Denov hududlarida saqlanib qolgan ayrim qadimiy fonetik shakllar hali ilmiy jihatdan to‘liq qayd qilinmagan. Boysun shevasida ko‘rmoq fe‘li “kōrik”, borayapman esa “baromman” tarzida aytiladi. Xuddi shuningdek, Qashqadaryo tog‘li qishloqlarida suv o‘rniga “sub”, bordi o‘rniga “barodi” shakllari ishlatiladi. Bu esa qadimiy qarluq unsurlarining hozirgacha yashab kelayotganidan dalolat beradi.

– Raqamli texnologiyalar va elektron lug‘atlarning sust rivojlanishi. Hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va ayrim universitetlarda elektron korpus yaratish ishlari boshlangan bo‘lsa-da, u faqat adabiy til ma-

teriallari asosida tuzilgan. Shevalar bo‘yicha maxsus korpus mavjud emas. Masalan, Toshkent va Farg‘ona shevalarida keng qo‘llanadigan “opchiq” (“chiqar”) yoki Xorazm shevasidagi “kevotti” (“kelayapti”) kabi shakllar elektron lug‘atlarga kiritilmagan. Bu esa shevalarning yozma manbalarda aks etmasligiga olib kelmoqda.

– Migratsiya va urbanizatsiya tufayli shevalarning yo‘qolishi. Ko‘plab yoshlar o‘z hududidan tashqariga ko‘chib, shaharlarda adabiy til asosida so‘zlashishga odatlanmoqda. Natijada, ularning avlodlari ona hudud shevasini bilmay qolmoqda. Masalan, Xorazmdan Toshkentga kelgan oilalar orasida bolalar “kevotti” o‘rniga adabiy til shakli “kelayapti”ni ishlatmoqda. Shuningdek, Farg‘onadan Toshkentga ko‘chib kelgan oilalarning farzandlari “boromman” shaklini ishlatmay, “borayapman” deya adabiy shaklni qabul qilmoqda. Bu jarayon shevalarning tabiiy saqlanishiga xavf tug‘dirmoqda.

Har bir sheva xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va etnolingvistik o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etadi. Shevalar orqali nafaqat xalqning lingvistik tafakkuri, balki uning turmush tarzi, qadriyatlar va milliy ruhiyati ham aks etadi. Chunki ular asrlar davomida shakllanib, ko‘plab tarixiy-siyosiy voqealar, migratsiya jarayonlari, boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalar natijasida boyib kelgan.

Shu bois, dialektal lug‘atchilikni rivojlantirish ilmiy hamda amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir. Bu borada – barcha hududiy shevalarni dala tadqiqotlari asosida tizimli yozib olish, fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarni keng ko‘lamda jamlash, audio-video materiallar asosida elektron korpuslar tuzish, zamonaviy texnologiyalar orqali interaktiv lug‘at va mobil ilovalar yaratish kabi yo‘nalishlarni jadallashtirish juda zarurdir. Ana shunda



o'zbek shevalari boy meros sifatida nafaqat tilshunoslar, balki keng jamoatchilik uchun ham qulay shaklda taqdim etiladi va ularning kelajak avlodga yetib borishi ta'minlanadi.

O'zbek tilshunosligida dialektal lug'atlar tuzish XX asrning o'rtalaridan boshlab shakllandi. Masalan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek dialektologiyasi" asarida Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo shevalaridan yig'ilgan fonetik hamda leksik materiallar tizimlashtirilgan[7]. Unda, Toshkent shevasida qo'llanadigan "apchiq" (chiqar), "sovuqcha" (sovuqqina), Farg'ona shevasidagi "aʃ" (taom, ovqat), "palvon" (kuchli odam) kabi so'zlar qayd etilgan. Shuningdek, Surxondaryo hududida uchraydigan "keloman" (kelayapman), "boroman" (borayapman), Xorazmda ishlatiladigan "qattiv" (qattiq) kabi shakllar ham alohida e'tiborga molik.

Bugungi kunda elektron lug'at tuzish ishlari boshlangan bo'lsa-da, ular ko'proq adabiy til materiallariga asoslangan. Dialektal lug'atlar esa raqamli shaklda deyarli yaratilmagan. Masalan, Toshkent shevasida ishlatiladigan "bervotti" ("bermoqda"), Qashqadaryo hududidagi "baromman" ("borayapman"), "kelomman" ("kelayapman"), Surxondaryodagi "keloman" ("kelayapman"), "qiloman" ("qilayapman") shakllari elektron platformalarda qayd etilmagan. Bundan tashqari, Xorazm shevasiga xos "yo'x" ("yo'q"), "bovotti" ("bo'lmoqda"), Farg'ona shevasidagi "bichuv" ("tikuvchi ayol") kabi so'zlar ham hozircha raqamli korpuslarda mavjud emas.

Bundan tashqari, raqamli lug'at foydalanuvchilarga qidiruv tizimi orqali bir so'zning turli hududiy variantlarini taqqoslash imkonini beradi. Masalan, "non" so'zining Toshkent shevasida "non", Xorazmda "yupqa", Surxondaryoda esa "patir" shakllari tezkor qidi-

ruv orqali ko'rinishi mumkin. Yoki "kichkina" so'zining Farg'onada "miyona", Samarqandda "pichaqdek" shakllari keltirilsa, ularning tarqalish xaritalari ham interaktiv ko'rinishda aks ettirilishi mumkin[8]. Bunday tizim nafaqat tilshunoslar, balki tarixchilar, madaniyatshunoslar, hatto ta'lim tizimida o'zbek tilining boyligini o'rganuvchi o'quvchilar uchun ham muhim manba bo'la oladi.

Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, bugungi globallashtirish davrida shevalarning asta-sekin yo'qolib borish xavfi ham mavjud. Migratsiya, ommaviy axborot vositalarining ta'siri, adabiy tilning ustuvorligi natijasida ko'plab yoshlar o'z hududiy shevasidan uzoqlashmoqda. Natijada, yuzlab qadimiy so'zlar, fonetik shakllar va grammatik vositalar unutilib ketishi mumkin. Shu sababli o'zbek shevalarini bugundan boshlab keng miqyosda yozib olish, audio va video shaklda hujjatlashtirish, elektron lug'atlar hamda lingvistik korpuslarda jamlash ilmiy jihatdan ham, madaniy merosni asrab qolish nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega.

O'zbek tili tarixi va shevalarini chuqur tadqiq etish jarayoni bizga bir necha muhim vazifalarni qo'yadi:

– Ilmiy vazifa – tilning taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, qadimgi va yangi unsurlarni farqlash, turkiy tillar oilasidagi o'zbek tilining o'rnini belgilash.

– Madaniy vazifa – xalqning og'zaki ijod namunalari, urf-odatlar, qadriyatlar va milliy dunyoqarashini til materiallari orqali tiklash.

– Amaliy vazifa – adabiy tilni boyitish, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy til resurslaridan keng foydalanish, yoshlarni o'z ona tiliga qiziqtirish.

– Texnologik vazifa — raqamli texnologiyalar yordamida til manbalarini hujjatlashtirish, elektron lug'atlar va korpuslar yaratish, she-

valarni zamonaviy platformalarda saqlash va targ'ib etish.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili tarixi va o'zbek shevalarini tadqiq etish – bu nafaqat tilshunoslikning tor sohasi, balki butun millatning madaniy xotirasi hamda ijtimoiy taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini bajaradi. Tilning har bir bosqichi xalqimizning hayotiy

tajribasini, madaniyatini, ruhiy dunyosini va tafakkurini aks ettiradi. O'zbek shevalari esa bu jarayonda tirik, jonli laboratoriya sifatida xalq tilining boyligini, rang-barangligini va tarixiy qatlamlarini o'zida mujassamlashtirib, kelajak avlod uchun qimmatli manba bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – SPb., 1893–1911.
2. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972.
3. Eraslan K. Mahmud al-Kashgari'nin Divanü Lügati't-Türk'ü Üzerine İncelemeler. – Ankara: TDK, 1989.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960.
5. Abdurahmonov G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Bozorov O. Hozirgi o'zbek dialektologiyasi muammolari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
8. Mirtojdiyev M. O'zbek tilining izohli lug'ati (onlayn nashr). – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.







